

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

M.M. YO‘LDOSHEV, K.N.NAMOZOV

L I N G U A L A T I N A
Lotin tilidan o‘quv qo‘llanma

SAMARQAND - 2006

Yoʻldoshev M.M., Namozov K.N. Lotin tilidan oʻquv qoʻllanma
- Samarqand: Sam DCHTI, 2006. –194 bet. Qayta nashr.

Oʻquv qoʻllanma chet tillar institutining talabalariga moʻljallangan boʻlib, qoʻllanmada lotin tilining tovush tizimi, morfologiyasi va grammatik qurilishi tasviriy xarakterda yoritildi. Lotin tili boʻyicha olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordamlashish maqsadida unda mavzuga tegishli matn va mashqlar hamda antik davri mualliflarining shoh asarlaridan namunalari berildi.

Masʼul muharrir: dots. Ismoilov S.I.

Taqrizchi: dots. Oʻrinboyev Z.B.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi oliy oʻquv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi Prezidiumining 2004 yil 1-maydagi 42-sonli majlisida bosishga ruxsat etilgan.

Samarqand davlat chet tillar instituti, 2006

SO‘Z BOSHI

Lotin tili o‘lik, lekin barhayot

Tillar haqida gap ketganda, qadimgi got, turkiy, shumer, hind, yunon va lotin tillari tilga olinadi. Qadimgi lotin tilidan boshqa nomlari zikr etilgan tillarda ma‘lum bir hududda gaplashilgan bo‘lsa, lotin tili G‘arbiy Yevropaning butun hududi va O‘rta Yer Dengizi atrofidagi aholi uchun hukmron til bo‘lgan.

Lotin tili (Lingua latina) qadimgi Italiyadagi Losia (Latium) qabilasining tili bo‘lgan. Qabila aholisi Lotinlar (Latini) deb atalgan va tili lotin tili deyilgan. Miloddan avvalgi 753-yilga kelib, Rim shahri qurilgandan so‘ng, atrofdagi qabilalar birlashib Rim davlatiga asos solindi. Keyinchalik Rim davlati butun Italiya hududini egallagan bo‘lsa, asta-sekin O‘rta Yer dengizi atrofidagi qabilalarni va G‘arbiy Yevropani to‘liq, Sharqiy Yevropani qisman bosib olib, buyuk Rim imperiyasiga aylandi. Shu sababli qabila tili bo‘lgan Lotin tili butun Rim imperiyasining tiliga aylandi.

Lotin tili ham boshqa tillar kabi taraqqiyot jarayonida ko‘p o‘zgarishlarga uchradi. Eng qadimgi lotin tili qabr toshlarida, qonunlarda va diniy qo‘shiqlarda saqlanib, bizgacha yetib kelgan. Lotin adabiy tilining tarixi miloddan avvalgi 240- yildan boshlanadi. Yunonistonlik harbiy asir Andronik (Yunonistonning Tarenti shahrida tug‘ilgan, taxminan 240- yillarda yashagan, Rimning eng qadimgi shoiri, Rim dostonchiligiga va dramaturgiyasiga asos solgan) Rimga qul qilib keltiriladi. Keyinchalik qullikdan ozod qilinib, Tit Liviy nomi bilan Yunon tragediya va komediyalarini lotin tiliga tarjima qilgan va lotin adabiy tilining shakllanishiga asos solgan. Bu davr lotin tilining arxaik davri deb qaraladi. Miloddan avvalgi 80- yildan 30- yilgacha bo‘lgan davr lotin tilining klassik davri yoki Siseron davri deb nomlanadi. Bu davrda Yu.Sezar (miloddan avvalgi 100 – 44- yillar), M.Sitseron (miloddan.avvalgi 44-yillar), Katull (miloddan avvalgi 80 – 54- yillar), Lukretsiy (miloddan avvalgi 98 – 55 yillar) kabi buyuk tarixchi, huquqshunos va shoirlar yetishib chiqdi. Miloddan avvalgi 30- yillardan milodning 14- yiligacha bo‘lgan davr Avgust davri yoki «oltin davr» deb qaraladi, chunki bu davrda Ovidiy (miloddan oldingi 43- 18-yillar), Goratsiy (miloddan oldingi 65-8- yillar), Vergiliy (miloddan

oldingi 70-19- yillar), Tit Liviy (miloddan oldingi 59 – milodning 17- yili) kabi o‘z asarlari bilan mashhur bo‘lgan buyuk shoirlar va tarixchilar ijod qilishgan.

Milodning II asrdan boshlab Rim bosib olgan Galliya hududidagi ko‘pgina qabilalarning tillari lotin tiliga o‘z ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Natijada lotin tili ikki guruhga, shahar tili (adabiy til) **sermo urbanus** va qishloq tili **sermo vulgarisga** ajraldi. Shaharlik o‘qimishli odamlarning tili mahalliy tillar bilan aralashib ketgan qishloq tilidan ancha farq qila boshladi. Natijada lotin tili mahalliy tillarning shakllanishiga imkoniyat yaratib berdi va hozirgi Roman tillari (fransuz, ispan, portugal, italyan, rumin va moldavan tillari)da o‘chmas iz qoldirdi. Olimlarning taxminiga ko‘ra, ingliz tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan 20000 so‘zdan 10400 tasi lotincha, 2200 tasi yunoncha, qolgan 5400 tasi anglo-saksoncha ekan.

Ijtimoiy-iqtisodiy va fan-texnikaning rivojlanish jarayonida lotin tili o‘zbek tiliga ham kirib keldi. Ayniqsa mustaqillikka erishgandan so‘ng bozor iqtisodiga o‘tish jarayonida minglab tijorat, turizmga oid so‘zlar kirib keldi. Bu so‘zlar nafaqat ilmiy, halqaro yoki tijorat sohalarga tegishli bo‘lgan atamalar, hatto so‘zlashuv nutqida ham o‘z o‘rnini egalladi va "o‘zbekchalashib" ketdi. Jumladan: student, dotsent, direktor, rektor, aspirant, auditoriya, laboratoriya, laborant, televideo, respublika, agronom, akvarium, egoist, agent, plantatsiya, irrigatsiya, kapital, prokuror, kolleksiya, gummanitar, lingvist, struktura, korrespondent, fakt, sanatoriya, kosmonavt, kurort, parad, diktora, diktant, lektor, leksiya, import, eksport, progress, operatsiya, kurs, instruksiya, agent, eksponat, traktor, fabrika va boshqalar.

O‘zbek tiliga kirib kelgan lotincha so‘zlarni asliga qiyos qilsangiz, ular asrlar davomida bizgacha yetib kelguncha murakkab tarixiy jarayonni boshidan kechirganiga o‘zingiz ham amin bo‘lasiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizga ma‘lum bo‘lgan qadimgi turkiy, got, slavyan, shumer, etrusk va boshqa tillar qachonlardir hukmron til bo‘lgan, keyinchalik ular yangi tillarga asos solgan, o‘zlari esa qo‘llanishdan umuman chiqib ketgan. Lotin tili ham hozirgi kunda so‘zlashuvda yo‘q, roman tillar oilasiga asos soldi. O‘lik til bo‘lishiga qaramay, hozirgi kunda ham butun yer yuzida lotincha so‘zlar har daqiqa, har soat, har kuni talaffuz etiladi, yoziladi, o‘qiladi.

FONETIKA

Lotin alifbosi. Lotin alifbosida 25 ta harf boʻlib, ular quyidagi tartibda joylashgan:

bosh harf	kichik harf	aytilishi	oʻzbekcha talaffuzi
A	a	a	a
B	b	be	b
C	c	ce	k
D	d	de	d
E	e	e	e
F	f	ef	f
G	g	ge	g
H	h	ha	h
I	i	i	i
J	j	jot	y
K	k	ka	k
L	l	el	l
M	m	em	m
N	n	en	n
O	o	o	o
P	p	pe	p
Q	q	ku	k
R	r	er	r
S	s	es	s
T	t	te	t
U	u	u	u
V	v	ve	v
X	x	iks	ks
Y	y	ypsilon	i
Z	z	zeta	z

UNLILAR VA UNDOSHLAR TALLAFUZI

Klassik lotin tilida 12 ta unli tovush boʻlib, ular 6 ta unlining choʻziq va qisqa talaffuz koʻrinishlaridir. Chunonchi, qisqa unlilar: **ă, ě, ĭ, ō, ŭ, y** va choʻziq unlilar: **ā, ē, ī, ō, ū, y**. Berilgan matnlarda qisqa unlilar ustiga ~ belgisi qoʻyilsa, choʻziq unli tepasiga - belgisi qoʻyiladi.

Lotin tilida bir necha qoʻsh unlilar yoki diftonglar boʻlib, ular hamisha birga qoʻllaniladi va soʻzlarda ikki unli bir boʻgʻinni (diftong) yoki bir tovushni (digraf) tashkil qilishadi. Ular quyidagilar: **au**=au kabi talaffuz etiladi au-ro-ra= aurora - tong, **eu**=eu kabi talaffuz etiladi eu-ro-pa= europa - yevropa, **ei**=ey kabi talaffuz etiladi dei-nde= deynde - nihoyat, **ae**=e kabi talaffuz etiladi ae-ra= era – era, **oe**=oʻ kabi talaffuz etiladi poe-na= poʻna –jazo.

Agar **ae** yoki **oe** harf birikmalaridagi **ā** unli tovushi ustida choʻziqlik belgisi yoki ikki nuqta boʻlsa, har qaysi unli tovush alohida talaffuz qilinadi. Masalan; aēr = aer - havo, poēma = poema-poema.

UNDOSHLAR TALAFFUZI

Undosh tovushlar talaffuzida quyidagi qonuniyatlarni esda saqlash lozim:

1. Klassik lotin tilida c harfi hamisha k deb talaffuz etilar edi. Keyinchalik ushbu harfning ikki xil talaffuzi qoida tusini oldi; e,i,y,ae.oe tovushlaridan oldin kelsa s, qolgan hollarda k deb talaffuz etiladigan boʻldi.

lotincha	fransuzcha	inglizcha	nemischa	oʻzbekcha
centum-yuz	cent	cent	Zentimeter	santimetr
decem-oʻn	decimal	decimal	dezimal	desimetr
caput-bosh	capital	capital	Kapital	kapital
causa-sabab	cause	cause	kausal	kauzal

2. **S** harfi ikki unli oʻrtasida **z** deb talaffuz etiladi, boshqa hollarda **s** kabi talaffuz etiladi; rosa (roza) - atirgul, causa (kauza) - sabab, solus (solus) - yagona, suus (suus) - uniki.

3. **X** ikki unli oʻrtasida kelsa **kz** deb, qolgan hollarda esa **ks** deb talaffuz etiladi: exercitus (ekzersitus) - mashq, lex (leks)-qonun.

4. **Q** harfi hamisha **u** harfi bilan qo‘shilib ishlatiladi va **kv** deb talaffuz etiladi: aqua (akva) - suv, quis (kvis) - kim.

5. **Ti** harf birikmasi unilardan oldin **si** kabi talaffuz etiladi ratio (rasio) - aql, zehn, ammo **sti**, **xti**, **tti**, **rti** birikmalarida **ti** deb talaffuz etiladi: bestia (bestia) - hayvon, mixtio (mikstio)- omixta, attius (attius)- attius, tertia (tertia)- uchinchi.

6 **Ngu** harf birikmasi **ngv** deb talaffuz etiladi: lingua(lingva)-til.

7. **Ch** harf birikmasi **x** deb talaffuz etiladi: schola(sxola)-maktab.

8. **Ph** harf birikmasi **f** deb talaffuz etiladi: physica(fizika)-fizika.

9. **Rh** harf birikmasi **r** deb talaffuz etiladi: rhythmicus(ritmikus) - ritm.

10. **Th** harf birikmasi **t** deb talaffuz etiladi: theatrum (teatrum) – teatr.

BO‘G‘IN AJRATISH

Lotin tilida bo‘g‘in ochiq yoki yopiq bo‘ladi. Unli tovush bilan tugallangan bo‘g‘in ochiq, undosh tovush bilan tugallangan bo‘g‘in yopiq bo‘g‘in deyiladi. So‘zda bo‘g‘unlarning soni shu so‘zdagi unli va diftonglarning soniga qarab ajratiladi.

Bo‘g‘in ajratiladi:

a) unli tovush yoki diftongdan keyin ro-sa (ro-za) atir gul, au-ro-ra (au-ro-ra) tong;

b) ikki unli o‘rtasidan de-us (de-us) xudo;

c) ikki undosh o‘rtasidan lec-tio (lek-si-o) o‘qish;

d) uchta undosh bo‘lsa, uchinchi undoshdan oldin sanc-tus (sank-tus) avliyo;

e) sirg‘aluvchi va portlovchi (pl, pr, bl, br, tl, tr, dl, dr, ci, cr, gl, gr) harf birikmalaridan (muta cum liquida) oldin pa-tri-a (pa-tri-a) vatan;

f) til o‘rta (yarim unli yarim undosh) **j** tovushi ikki unli o‘rtasida kelsa, ikki marta talaffuz qilinib, so‘zni ikki bo‘g‘inga ajratadi maj-jor (may-yor) kattaroq.

CHO‘ZIQ VA QISQA BO‘G‘INLAR

Klassik lotin tilida har bir bo‘g‘in talaffuz etilishiga ko‘ra cho‘ziq va qisqa bo‘lgan. Diftongli bo‘g‘inlar hamisha cho‘ziq bo‘g‘in hisoblanadi. Masalan: *paū-per* (kambag‘al) birinchi bo‘g‘inda **au** diftongi bo‘lganligi uchun **pau-** cho‘ziq bo‘g‘indir. Hamma yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *scrip-tor* (yozuvchi), *magis-ter* (o‘qituvchi). Unli tovush bilan boshlangan bo‘g‘indan oldin kelgan ochiq bo‘g‘in qisqa talaffuz qilinadi. Masalan: *ra-ti-o* (aql) so‘zidagi **ti-** unli tovushdan oldin kelganligi uchun qisqa talaffuz qilinadi. Qolgan ochiq bo‘g‘inlarda unli tovush cho‘ziq bo‘lsa cho‘ziq, qisqa bo‘lsa qisqa talaffuz qilinadi. Masalan: *lū-na* (oy), *a-mā-re* (sevmoq). Bu misollardagi ochiq bo‘g‘in *lū-*, *mā-* cho‘ziq unli bilan kelganligi sababli cho‘ziq talaffuz qilinadi, *pī-* (to‘p), *mā-ni-pū-lus* (manipulo) so‘zlaridagi *pī-*, *mā-*, *pū-* bo‘g‘inlari qisqa unli tovush bilan kelganligi uchun qisqa talaffuz qilinadi.

URG‘U

Lotin tilida urg‘u muayyan bir qoidaga ega bo‘lib, ikki bo‘g‘inli so‘zlarda birinchi bo‘g‘inga tushadi. Uch yoki undan ortiq bo‘g‘inli so‘zlarda esa so‘zning oxiridan ikkinchi cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi. Agar so‘zning oxiridagi bo‘g‘in qisqa bo‘lsa bu holda so‘z oxiridan uchinchi bo‘g‘inga tushadi. Masalan: ikki bo‘g‘inli so‘zlar *pa’-ter* - ota, *ma’-ter* -ona, *vi’-a* -yo‘l, *cae’-lum* -osmon, *cau’-sa* -sabab. Oxiridan ikkinchi bo‘g‘in urg‘uli bo‘lgan so‘zlar *a-mi’-cus* -do‘st, *ha-be’-re* - ega bo‘lmoq, *lau-da’-re* - maqtamoq. Oxiridan uchinchi bo‘g‘in urg‘uli bo‘lgan so‘zlar *au’-tum-num* - kuz, *de’-fen-do* – men himoya qilayapman.

MORFOLOGIYA

Quidquid discis tibi discis.
Nimaniki o‘rgansang, o‘zing uchun o‘rganasan.

LOTIN TILINING QURULISHI HAQIDA

Lotin tili Hind-Yevropa tillari oilasidagi roman tillari bo‘limining asoschisi, boshlovchisi hisoblanib, tuzilishi jihatidan sintetik til hisoblanadi, ya’ni bunda so‘zlarning leksik va grammatik shakllari asosan qo‘shimchalar vositasida ifoda etiladi, va xuddi shu xususiyatlari bilan analitik tillar guruhiga kiruvchi fransuz, ingliz va tojik tillaridan farq qiladi. Chunonchi bu tillarda qo‘shimchalar o‘rnini yordamchi so‘zlar (predloglar, artikl va ba’zan supletiv shakllar) bajaradi. Masalan:

lotincha	fransuzcha	inglizcha	nemischa
domo	a la maison	to the house	nach Hause
puerorum	des enfants	children	der Kinder

o‘z b e k ch a
uyga yoki uyda, bolalarning

Lotin tili sintaksisining xarakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bu tilda, so‘z tartibi erkin bo‘lib, gapda so‘zning o‘rni o‘zgargani bilan, uning sintaktik vazifasi asosan o‘zgarmaydi. Lotin tilida otlar va sifatlar asosdagi oxirgi tovushiga qarab turlanish guruhlariga bo‘linsa, fe’llar esa o‘zakdagi oxirgi unli tovushga qarab tuslanish guruhlariga bo‘linadi. O‘zbek tilida rod grammatik kategoriyasi bo‘lmaganligi sababli otlar (bundan sifatlar mustasno) turlanish guruhlariga bo‘linmay, oltita kelishikda bir xil qo‘shimchalarni olib, turlanadi.

Lotin tili morfologiyasini to‘g‘ri tushunish uchun, quyidagilarga amal qilish lozim bo‘ladi: 1) so‘zlarning lug‘atda berilish tartibini o‘rganish, 2) so‘z o‘zagini to‘g‘ri aniqlash, 3) so‘zlarning o‘zagi, suffiksi va qo‘shimchalarini farqlay olish lozim.

OT

NOMEN SUBSTANTIVUM

Lotin tilida ot quyidagi grammatik kategoriyalarga ega.

1. Rod (genus). Lotin tilida otlarda uchta rod bor: mujskoy rod (masculinum) qisqacha **m** bilan ifodalanadi, jenskiy rod (femininum) qisqacha **f** bilan ifodalanadi, sredniy rod (neutrum) qisqacha **n** bilan ifodalanadi.

Jonli predmetni anglatuvchi ba'zi otlar ikkala rodda ham bo'lishi mumkin: *civis, is m.f.*-fuqaro, *bos, bovis m.f.*- ho'kiz. Bu turdagi otlar juda kam.

Boshqalari esa, har ikkala rodda o'z shakllariga ega: *filius, ii m.*-o'g'il bola, *filia, ae f.*-qiz bola (rod grammatik kategoriyasi o'zbek tilida mavjud emas).

2. Son (numerus). Lotin tilida ham boshqa tillardagi kabi birlik (singularis) va ko'plik (pluralis) grammatik kategoriyasi mavjud. Lotin tilida yana shunday otlar borki, ular faqat birlikda qo'llaniladi va singularia tantum deb ataladi. Masalan: *justitia, ae* = haqiqat, odillik, *argentum, i* - kumush, boshqa bir guruh otlar esa faqat ko'plikda qo'llaniladi va pluralia tantum deb ataladi. Masalan; *arma, armorum n* - qurol, *divitiae, arum f*- boylik va boshqalar.

3. Kelishik (casus). Lotin tilida 6 ta kelishik mavjud bo'lib, ular o'zbek tilidagi kelishiklar bilan quyidagi o'xshash tomonlarga ega:

Nominativus qisqacha (N) - bosh kelishik, kim? nima? so'rog'iga javob beradi va gapda ega yoki kesim (ot kesim) vazifasida qo'llaniladi.

Genetivus (G) - qaratqich kelishigi kimning? nimaning? so'rog'iga javob berib, aniqlovchi yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida ishlatiladi.

Dativus (D) - jo'nalish kelishigi, kimga? nimaga? so'rog'iga javob berib, vositali to'ldiruvchi va maqsad holi vazifasida qo'llaniladi.

Accusativus (Acc) -tushum kelishigi, kimni? nimani? va qayerga? so'rog'iga javob beradi va gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Predlog bilan kelgan holda, vositali to'ldiruvchi yoki hol vazifasida qo'llaniladi.

Ablativus (Abl) - bu kelishik o‘zbek tilidagi ikkita kelishikning vazifasini bajaradi; o‘rin-payt va chiqish kelishigi kabi kimda? nimada? qayerda? yoki kimdan? nimadan? qayerdan? so‘roq‘lariga javob beradi. Gapda vositali to‘ldiruvchi yoki hol vazifasini bajaradi.

Vocativus (V) - vokativ kelishigi, chaqirish va murojaatni ifodalab, asosan, buyruq gaplarda ishlatiladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, lotin tilida otlarning qaysi kelishikda kelishi ko‘pincha ular bilan yonma-yon qo‘llangan predloglarga ham bog‘liqdir.

4. Turlanish (declinatio). Lotin tilida otlarning besh xil turlanishi bo‘lib, ular biri ikkinchisidan asoslari (so‘z o‘zagi) dagi ma‘lum unli bilan farqlanadi. Lotin tilida asos (o‘zak) dagi so‘nggi unli birmuncha o‘zgarishi ham mumkin, biroq u so‘z o‘zagini tubdan o‘zgartira olmaydi. Shuning uchun ham lotin tili lug‘atlarida otlar hamisha bosh va qaratqich kelishiklarida beriladi. Otlarni amaliy jihatidan farqlash belgisi Genetivus singularis shakli hisoblanadi. Otlarning Gen.sing. shaklidagi kelishik qo‘shimchasi olib tashlansa, otning asosi hosil bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda qaratqich kelishigining qo‘shimchasi ma‘lum otning qaysi turlanishga taaluqli ekanligini ham ko‘rsatadi. Masalan:

Turlanish	Asosdagi so‘nggi unli	Gen.sing. qo‘shimchasi
1 - turlanish	-a	-ae
2 - turlanish	-o,-e	-i
3 - undosh turlanish	undosh tovush	-is
3 - unli turlanish	-i	-is
4 - turlanish	-u	-us
5 - turlanish	-e	e-i

Eslatma: O‘zbek tilida so‘zlashuvchi talabalar otlarning turlanishi deganda otlarning 6 ta kelishikda qo‘shimchalar qabul qilishini tushunadilar. Aslida esa turlanish bu otlarning asosiga qarab

guruhlarga bo‘linishidir. Ya’ni bosh kelishikdan boshqa kelishiklarda, har bir guruhga kiruvchi otlar alohida kelishik qo‘shimchalariga ega. Bu hol turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida, grammatik rod kategoriyasi bo‘lmaganligi sababli uchramaydi. Masalan:

lotincha			o‘zbekcha	
I tur.	II tur.	III tur.	bir xil	
N.	luna	puer	homo	B. oy bola odam
G.	lun-ae	puer-i	homin-is	Q. oying bolaning odamning

BIRINCHI TURLANISHGA KIRUVCHI OTLAR

Repititio est mater studiorum.
Takrorlash bilimning onasidir.

Otlarning birinchi turlanishiga Nom.singularis da **-a** qo‘shimchasi bilan tugallangan jenskiy roddagi otlar, hamda ba’zi bir mujskoy roddagi (kasb-hunar va millat ma’nosini bildiruvchi) otlar kirib, ular Gen.sing.da **-ae** qo‘shimchasini oladilar. Masalan; *concordia,ae* f.- rozilik, *doctrina,ae* f. - o‘qish, o‘rganish, *fabula,ae* f.- masal, hikoya, *agricola,ae* m.- dehqon, *nauta,ae* m. - dengizchi, *persa,ae* m.- fors, eronlik, *scytha,ae* m.-skif.

Birinchi turlanishdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari:

	<i>Singularis</i>	<i>Pluralis</i>
Nom.	- <i>ā</i>	- <i>ae</i>
Gen.	- <i>ae</i>	- <i>ārum</i>
Dat.	- <i>ae</i>	- <i>īs</i>
Acc.	- <i>am</i>	- <i>ās</i>
Abl.	- <i>ā</i>	- <i>īs</i>
Voc.	- <i>ā</i>	- <i>ae</i>

Birinchi turlanishdagi otlarning kelishik qo‘shimchalaridan ko‘rinib turibdiki, barcha kelishiklarda -a unlisi saqlangan. Masalan;

	<i>Singularis</i>		<i>Pluralis</i>	
Nom.	<i>fabulā</i>	hikoya	<i>fabulae</i>	hikoyalar
Gen.	<i>fabulae</i>	hikoyaning	<i>fabulārum</i>	hikoyalarning
Dat.	<i>fabulae</i>	hikoyaga	<i>fabulīs</i>	hikoyalarga
Acc.	<i>fabulam</i>	hikoyani	<i>fabulās</i>	hikoyalarni

Abl.	<i>fabulā</i>	hikoyada,dan	<i>fabulīs</i>	hikoyalarda,dan
Voc.	<i>fabulā</i>	hikoya	<i>fabulae</i>	hikoyalar

IKKINCHI TURLANISHGA KIRUVCHI OTLAR

Docendo discimus.
O‘rgatib, o‘rganamiz.

Otlarning ikkinchi turlanishiga Nom.sing.da **-us, -er** qo‘shimchali mujskoy roddagi, **-um** qo‘shimchali sredniy roddagi otlar hamda **-ir** qo‘shimchali **vir** oti kiradi. Bu otlar Gen. sing.da **-i** qo‘shimchasini oladilar. Masalan: *amicus, amici* m - do‘st, o‘rtoq, *hortus, horti* m - bog‘, chorbog‘, *liber, libri* m - kitob, daftar, *ager, agri* m - yer, dala, *metallum, metalli* n - metal, *aurum, auri* n - oltin, *locus, loci* m - o‘rin, joy.

Ikkinchi turlanishdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari va ularning turlanishi.

	Singularis		Pluralis	
	m.	n.	m.	n
Nom.	-ūs,	-ēr, -ūm	-ī,	-ǎ
Gen.	-ī		-ōrum	
Dat.	-ō		-īs	
Acc.	-ōm		-ōs,	-ǎ
Abl.	-ō		-īs	
Voc.	-ē,	-ēr, -ūm	-ī,	-ǎ

	Singularis			
Nom.	lupūs	bo‘ri	libēr	metallūm
Gen.	lupī	bo‘rining	librī	metallī
Dat.	lupō	bo‘riga	librō	metallō
Acc.	lupūm	bo‘rini	librūm	metallūm
Abl.	lupō	bo‘rida,dan	librō	metallō
Voc.	lupē	bo‘ri	libēr	metallūm
	Pluralis			
Nom.	lupī	bo‘rilar	librī	metallǎ
Gen.	lupōrum	bo‘rilarning	librōrum	metallōrum

Dat.	lupīs	bo‘rilarga	librīs	metallīs
Acc.	lupōs	bo‘rilarni	librōs	metallā
Abl.	lupīs	bo‘rilarda,dan	librīs	metallīs
Voc.	lupī	bo‘rilar	librī	metallā

Eslatma:

1.-us qo‘shimchali mujskoy roddagi otlar Voc.sing.da -e qo‘shimchasini oladilar. Boshqa hollarda, hamisha Nom. va Voc. kelishiklari bir xil qo‘shimchaga ega bo‘ladi.

2. Sredniy roddagi otlar hamisha Nom.,Acc. va Voc.da bir xil qo‘shimchali bo‘ladi. Bu roddagi otlar shu kelishiklarning ko‘plik sonida doim bir xil ya‘ni -a qo‘shimchasini oladi.

3. Mujskoy hamda sredniy roddagi **-ius,-ium** qo‘shimchasi bilan tugallangan otlarda, o‘zakdagi **i** unlisi saqlangan holda, Gen. sing.da ikkita **ii** bilan yoziladi. Masalan: *filius, filii* m - o‘g‘il, *imperium, imperii* n - hokimiyat.

4. *Puer, pueri* m - o‘g‘il bola, *vir, viri* m - erkak kishi kabi otlar ham ikkinchi turlanish otlari kabi turlanadi.

UCHINCHI TURLANISHGA KIRUVCHI OTLAR

Multos timere debet, quem multi timet.

Ko‘pchilik kimdan qo‘rqsa, o‘shalardan qo‘rqish kepak.

Uchinchi turlanishga kiruvchi otlar noto‘g‘ri turlanuvchi otlar deb atalishi mumkin, chunki bu turlanishga kiruvchi ko‘pchilik otlarning asosida o‘zgarish kuzatiladi. Shuningdek, Gen. sing.da ular Nom.sing. dagiga nisbatan bir bo‘g‘in ko‘p bo‘lib, so‘z asosidagi undoshlar turlicha bo‘ladi.

Bu turlanishga Nom.sing.da har xil qo‘shimchalarni va Genetivus sing.da **-is** qo‘shimchasini olgan mujskoy, jenskiy hamda sredniy roddagi otlar kiradi. Masalan: *cantor,oris* m.- ashulachi, *dictator,oris* m.- diktator, *error,oris* m.-xato, *caritas, atis* f.- hurmat, extirom, *caro, carnis* f.-go‘sh, *clades, is* f.-baxtsizlik, *carmen, inis* n.- qo‘shiq, *frigus,oris* n.- sovuq, qahraton, *tempus, oris* n.- vaqt, zamon, *homo, inis* m.- odam, inson, *lex, legis* f - qonun.

Uchinchi turlanishdagi otlarning asosi ularning Gen.sing. shaklidan -is qo‘shimchasini olib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Masalan: bosh kelishikdagi *juventus*, qaratiqich kelishigida *juventutis*

bo‘ladi. Qaratqich kelishigidagi **-is** qo‘shimchasi olib tashlansa, otning asosi *juventut-* ekanligi ma’lum bo‘ladi. Buni barcha uchinchi turlanishga kiruvchi otlar misolida ham ko‘rish mumkin: Nom. *rex*, Gen. *regis* m asosi **reg-**, Nom. *flumen*, Gen. *fluminis* asosi **flumin-** va hokazo.

Uchinchi turlanishga kiruvchi otlar asosdagi oxirgi tovushga qarab ikki variantga bo‘linadi. Asosi undosh tovush bilan tugallangan otlar undoshlar varianti, asosi unli tovush bilan tugallangan otlar esa unli varianti deb ataladi. Yana bir guruh otlar borki, ular birligida undoshlar variantiga kiruvchi otlar kabi ko‘pligida esa unli variantiga kiruvchi otlardek turlanadi. Shu sababli bu guruhga kiruvchi otlar aralash variant deb ataladi.

UCHINCHI TURLANISHDAGI OTLARNING UMUMIY KELISHIK QO‘SHIMCHALARI:

	Singularis			Pluralis		
	m.	f.	n.	m.	f.	n.
Nom. har xil yoki		-al,-ar,-ĕ	-ĕs,	-ă,	-iă	
Gen.		-īs	-īs	-ūm,	-um	-iūm
Dat.		-ī	-ī	-ībūs	-ībūs	-ībūs
Acc.		-ĕm	-al,-ar,-ĕ	-ĕs,	-ă,	-iă
Abl.		-ĕ,	-ī	ībūs	-ībūs	-ībūs

UNDOSH VARIANT

Otlarning uchinchi turlanishidagi undoshlar variantiga Nom.sing. kelishigida har xil qo‘shimcha bilan tugallanuvchi uchala roddagi otlar ham kirib, ularning asosi odatda bitta undosh tovush bilan tugallanadi. Bu turlanishga bosh kelishik birlikda assigmatik (nol qo‘shimchali) va sigmatik (**-s** qo‘shimchasiga ega bo‘lgan) uchala roddagi otlar ham kiradi.

ASSIGMATIK (NOL QO‘SHIMCHALI) NOMINATIV

Bu turdagi otlarga asosi yumshoq **-l, -r** va til oldi **-n, -s** tovushlari bilan tugallangan otlar kiradi. Bundan tashqari bu turlanishga kiruvchi otlarning asosi bosh kelishik yoki boshqa kelishiklarda fonetik qonuniyatlar asosida o‘zgarishi mumkin. Masalan:

Nom.sing. *consul*, Gen.sing. *sconsulis*, asosi **consul-**

Nom.sing. *orator*, Gen.sing. *oratoris*, asosi **orator-**.

Nom.sing. *nomen*, Gen.sing. *nominis*, asosi **nomin-**.

Ochiq bo‘g‘inda kelgan qisqa **-e** bosh kelishikdan tashqari qolgan kelishiklarda qisqa **-i** ga aylanadi. *nomen- no-mi-nis*. Nom.sing. *ratio*, Gen.sing. *rationis* asosi *ration-*, bosh kelishik birlikda burunlashgan **-n** tovishi tushib qolgan. Xuddi shuningdek: Nom.sing. *homo*, Gen.sing. *hominis*, asosi *homin-*. Qadimda *homon* bo‘lgan, Qaratqich kelishigida *homonis*, ochiq bo‘g‘inda kelgan cho‘ziq **-o** qisqa **-i** ga aylanishi natijasida *hominis* bo‘lgan. Nom.sing. *tempus*, Gen.sing. *temporis*, asosi *tempor-*. Nom.sing. *tempos tempus*, Gen.sing. *temposis temporis*, asosdagi **-s** rotasizm qonuniga asosan **-r** ga aylangan.

SIGMATIK NOMINATIV

Bu turdagi otlarga asosi jarangli, jarangsiz, til orqa **-c, -g** va til oldi **-t, -d** tovushlari bilan tugallangan, bosh kelishik birlikda **-s** qo‘shimchasini olgan otlar kiradi.

a) asosi **-c, -g** tovushlari bilan tugallangan otlar. Nom.sing. *pax*, Gen.sing. *pacis*, Nom.s. *lex*, Gen.s. *legis*.

Til orqa **c, g** harflari **s** harfidan oldin kelib shu harf bilan qo‘shilib **ks** harf birikmasini beradi. Bu harf birikmasi yozuvda **x** bilan ifodalanadi. **c+s=x, g+s=x**. *legs- lex, pacs-pax*.

b) asosi **-t, -d** bilan tugallangan otlar.

Nom.s. *aetas*, Gen.s. *aetatis*, Nom.s. *miles*, Gen.s. *militis*. Til oldi **t, d** undosh tovushlari **s** dan oldin to‘lig‘icha assimilyatsiyaga uchraydi. Masalan: Qadimgi lotin tilida *aetats* bo‘lgan **s** dan oldin kelgan **t** shu **s** ta‘sirida **s** ga aylangan *aetass*, bir joyda kelgan ikkita bir xil undoshdan biri tushib qolgan *aetas* bo‘lgan yoki *miles-milets*,

miless- miles. Bu variantdagi otlar kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Singularis			Pluralis			
m	f	n	m	f	n	
Nom.	<i>flor̄s</i>	<i>nuc̄s</i>	<i>corp̄s</i>	<i>flor̄ēs</i>	<i>nuc̄ēs</i>	<i>corpor̄ā</i>
Gen.	<i>flor̄īs</i>	<i>nuc̄īs</i>	<i>corp̄ōīs</i>	<i>flor̄ūm</i>	<i>nuc̄ūm</i>	<i>corpor̄ūm</i>
Dat.	<i>flor̄ī</i>	<i>nuc̄ī</i>	<i>corp̄ōī</i>	<i>flor̄ībūs</i>	<i>nuc̄ībūs</i>	<i>corpor̄ībūs</i>
Acc.	<i>flor̄ēm</i>	<i>nuc̄ēm</i>	<i>corp̄ūs</i>	<i>flor̄ēs</i>	<i>nuc̄ēs</i>	<i>corpor̄ā</i>
Abl.	<i>flor̄ē</i>	<i>nuc̄ē</i>	<i>corp̄orē</i>	<i>flor̄ībūs</i>	<i>nuc̄ībūs</i>	<i>corpor̄ībūs</i>
Voc.	<i>flor̄s</i>	<i>nuc̄s</i>	<i>corp̄ūs</i>	<i>flor̄ēs</i>	<i>nuc̄ēs</i>	<i>corpor̄ā</i>

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, undoshlar variantiga kiruvchi otlar bosh kelishikka nisbatan qolgan kelishiklarda bir bo‘g‘in ko‘p bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

UNLI VARIANT

Uchinchi turlanish otlarning unli variantiga bosh kelishik birlikda **-al,-ar,-e** qo‘shimchalari bilan tugallangan sredniy rod otlari kiradi. Masalan: *mare,maris* n - dengiz, *animal,animalis* n - hayvon, *exemplar,exemplaris* n - misol, nusxa. Bu variantga kiruvchi otlarning asosi hamisha qisqa **-i** bilan tugallanib, fonetik qonuniyatlar ta‘sirida Nom.singularisda qisqa **-i** umuman tushib qolgan yoki qisqa **-e** ga aylangan. Masalan: *animali* - *animal*, *exemplari* - *exemplar*, *mari* - *mare*.

Unlilar variantiga kiruvchi otlarning turlanishi:

	Sing.	Plur.	Sing.	Plur.
Nom.	<i>mar̄ē</i>	<i>mariā</i>	<i>animal</i>	<i>animaliā</i>
Gen.	<i>mar̄īs</i>	<i>mariūm</i>	<i>animalīs</i>	<i>animaliūm</i>
Dat.	<i>mar̄ī</i>	<i>mar̄ībūs</i>	<i>animalī</i>	<i>animalībūs</i>
Acc.	<i>mar̄ē</i>	<i>mariā</i>	<i>animal</i>	<i>animaliā</i>
Abl.	<i>mar̄ī</i>	<i>mar̄ībūs</i>	<i>animalī</i>	<i>animalībūs</i>
Voc.	<i>mar̄ē</i>	<i>mariā</i>	<i>animal</i>	<i>animaliā</i>

Uchinchi turlanishning unli variantiga yuqorida qayd etilgan otlardan tashqari, jenskiy roddagi teng bo‘g‘inli otlar (*turr̄is,īs* f -minora; *pupp̄is,īs* f - quyruq, dum, orqa; *securis,īs* f -bolta; *febris,īs* f - bezgak), shuningdek teng bo‘g‘inli bo‘lgan

shaharlarning nomlari (*Neapolis, is f - Neapol*) va mujskoy roddagi daryolarning nomlari (*Tiberis, is m - Tibr*) kiradi. Bu otlar Acc. sing. da -im (*turrim*), Abl. sing. da -i (*turri*), Gen. plur. da -ium (*turrium*), Acc. plur. da es yoki -is qoʻshimchalarini qabul qiladi. *Vis, -, f - kuch, qudrat, oti ham shu guruh otlaridek turlanadi.*

Masalan:

	Singularis		Pluralis	
Nom.	turris	vis	turrēs	virēs
Gen.	turrīs	yoʻq	turriūm	virīūm
Dat.	turrī	yoʻq	turrībūs	virībūs
Acc.	turrīm	vīm	turrēs (turris)	virēs
Abl.	turrī	vī	turrībūs	virībūs

ARALASH VARIANT

Aralash variantga asosi ikki yoki bir nechta undosh tovush bilan tugallangan yoki bosh kelishik va qaratqich kelishiklarida teng boʻgʻinga ega boʻlgan mujskoy hamda jenskiy roddagi otlar kiradi.

Masalan: *pars, partis f - qism, boʻlak, ars, artis f - sanʼat, avis, avis - qush, nubes, nubis f - bulut.*

Bu turlanishga kiruvchi otlarning aralash variant deb atalishiga sabab shundaki, faqatgina Gen. plur. da ular unli variant qoʻshimchasi **-i** ni saqlab qolishgan (**-ium**), boshqa kelishiklarda esa undosh variant otlaridek turlanadilar.

Aralash variantga kiruvchi otlarning turlanishi:

	Sing.	Plur.	Sing.	Plur.
Nom.	<i>ars</i>	<i>artēs</i>	<i>avīs</i>	<i>avēs</i>
Gen.	<i>artīs</i>	<i>artiūm</i>	<i>avīs</i>	<i>aviūm</i>
Dat.	<i>artī</i>	<i>artībūs</i>	<i>avī</i>	<i>avībūs</i>
Acc.	<i>artēm</i>	<i>artēs</i>	<i>avēm</i>	<i>avēs</i>
Abl.	<i>artē</i>	<i>artībūs</i>	<i>avē</i>	<i>avībūs</i>
Voc.	<i>ars</i>	<i>artēs</i>	<i>avīs</i>	<i>avēs</i>

Eslatma: sredniy rodga tegishli boʻlgan *os, ossis n - suyak* otigina aralash varianti otlaridek turlanadi (Nom. Acc. pluralis *ossa*, Gen. pluralis *ossium*)

TO‘RTINCHI TURLANISHGA KIRUVCHI OTLAR

Manus manum lavat. - Qo‘l qo‘lni yuvadi.

Otlarning to‘rtinchi turlanishiga Nom.sing.da **-us** qo‘shimchasi bilan tugallanuvchi mujskoy roddagi, hamda **-u** qo‘shimchasi bilan tugallanuvchi sredniy roddagi otlar kirib, Gen. sing. da **-us** qo‘shimchasini oladi. Masalan: *fructus, us* m – meva, *exercitus, us* m – qo‘shin, askar, *cornu, us* n – shox, *gelu, us* n – yax, muz.

To‘rtinchi turlanishga kiruvchi otlarning kelishik qo‘shimchalari

	Singularis		Pluralis	
	m.	n.	m.	n.
Nom.	-ūs	-ū	-ūs	-uǎ
Gen.	-ūs	-ūs	-uŭm	-uŭm
Dat.	-uī	-ū	ībūs	-ībūs
Acc.	-ŭm	-ū	-ūs	-uǎ
Abl.	-ū	-ū	-ībūs	-ībūs
Voc.	-ūs	-ū	-ūs	-uǎ

	Singularis		Pluralis	
	m.	n.	m.	n.
Nom.	<i>fructūs</i>	<i>cornū</i>	<i>fructūs</i>	<i>cornuǎ</i>
Gen.	<i>fructūs</i>	<i>cornūs</i>	<i>fructuŭm</i>	<i>cornuŭm</i>
Dat.	<i>fructuī</i>	<i>cornū</i>	<i>fructībūs</i>	<i>cornībūs</i>
Acc.	<i>fructūm</i>	<i>cornū</i>	<i>fructūs</i>	<i>cornuǎ</i>
Abl.	<i>fructū</i>	<i>cornū</i>	<i>fructībūs</i>	<i>cornībūs</i>
Voc.	<i>fructūs</i>	<i>cornū</i>	<i>fructūs</i>	<i>cornuǎ</i>

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, IV turlanishdagi otlarda so‘z o‘zagidagi **-u** unlisi barcha kelishiklarda saqlangan, biroq ular Dat. va Abl. plur. da III turlanishdagi kabi **-ibus** qo‘shimchasini olgan. Ammo ba’zi bir IV turlanish otlarida esa o‘sha kelishiklarda **-ubus** qo‘shimchasini oladi. Masalan: *artus, us* m – bo‘g‘in, *tribus, us* m – oddiy xalq, guruh, *specus, us* m – g‘or, *lacus, us* m – ko‘l kabi otlarda *artubus, specubus, lacubus* bo‘ladi.

Toʻrtinchi turlanishga kiruvchi mujskoy roddagi otlarning koʻpchiligi feʼllarning supin asosidan tashkil topgan yasama otlardir. Masalan: *sto, steti, statum, stare* I – turmoq, *status, us* m – turish, holat; *video, vidi, visum, videre* 2 – koʻrmoq, *visus, us* m – koʻrishish, tashrif; *cado, cecidi, casum, cadere* 3 - yiqilmoq, tushmoq, *casus, us* m – tushush, oʻlish; *audio, audivi, auditum, audire* 4 - eshitmoq, *auditus, us* m – tinglash, eshitish; *sentio, sensi, sensum, sentire* 4 - sezmoq, his qilmoq *sensus, us* m – his-hayajon.

Otlarning toʻrtinchi turlanishiga bosh kelishik birlikda – **us** qoʻshimchasi bilan tugallangan baʼzi bir jenskiy roddagi otlar ham kiradi. Ulardan eng koʻp qoʻllanadiganlari quyidagilar: *domus, us* f – uy, *manus, us* f – qoʻl. Jenskiy roddagi *domus* oti baʼzi kelishiklarda II turlanish kelishik qoʻshimchalarini oladi. Masalan:

	Singularis		Pluralis	
Nom.	manūs	domūs	manūs	domūs
Gen.	manūs	domūs	manuūm	domuūm (dom-ōrum)
Dat.	manuī	domuī	manībūs	domībūs
Acc.	manūm	domūm	manūs	dom-ōs
Abl.	manū	dom-ō	manībūs	domībūs
Voc.	manūs	domūs	manūs	domūs

BESHINCHI TURLANISHGA KIRUVCHI OTLAR

Res non verba.

Aytish oson, bajarish qiyin.

Otlarning beshinchi turlanishiga Nom.sing. da **-es** qoʻshimchasi bilan tugallangan jenskiy roddagi otlar kirib, Gen. sing. da **-ei** qoʻshimchasini oladi. Bu turlanishga kam miqdorda otlar kirsa ham, ular nutq jarayonida koʻp qoʻllaniladi. Bu turlanishga kiruvchi otlarning koʻpchiligini jenskiy roddagi otlar tashkil qiladi. Faqat *dies, diei* f - k u n soʻziga mujskoy hamda jenskiy rodga qarashlidir. *Dies* va *res* otlarigina birlik va koʻplik sonlarida turlanadi, qolgan otlar esa faqat birlikdagina turlanadi. Masalan:

	Singularis			Pluralis		
Nom.	rēs	diēs	spēs	rēs	diēs	-
Gen.	rēi	diēi	spēi	rērūm	diērūm	-
Dat.	rēi	diēi	spēi	rēbūs	diēbūs	-
Acc.	rēm	diēm	spēm	rēs	diēs	-
Abl.	rē	diē	spē	rēbūs	diēbūs	-
Voc.	rēs	diēs	spēs	rēs	diēs	-

OTLARNING BARCHA TURLANISHLARI HAQIDA UMUMIY XULOSA

Homo locum ornat, non hominum locus.
Joy insonni emas, inson joyni bezaydi.

Otlarning barcha turlanishlaridagi kelishik qo‘shimchalarini qiyoslab, ular orasidagi umumiylikni payqash mumkin:

a) Nom. sing. da mujskoy hamda jenskiy roddagi otlar ikkinchi, to‘rtinchi va beshinchi turlanishlarda sigmatik, ya’ni –s qo‘shimchasiga (II turlanish *lupus*, III turlanish *civitas*, IV turlanish *fructus*, V turlanish *res*) ega bo‘ladi. Yoki ba’zi bir uchinchi turlanishga kiruvchi otlar bosh kelishik birligida nol qo‘shimchaga, ya’ni hech qanday qo‘shimchaga ega bo‘lmaydi (*scriptor*, *homo*, *flumen*). Sredniy roddagi otlar ikkinchi turlanishda –m qo‘shimchasiga *bellum*, qolgan turlanishlarda esa nol qo‘shimchaga ega (III turlanish *nomen*, *corpus*, *os*, IV turlanish *genu*, *cornu*).

b) Gen.sing. da birinchi, ikkinchi va beshinchi turlanishlarda otlar –i qo‘shimchasini oladi (I turlanish *stellae* – *stellai*, II turlanish *lupi*, V turlanish *spei*). Qolgan turlanishlarda esa –s qo‘shimchasini oladi (III turlanish *hominis*, IV turlanish *fructus*).

c) Dat.sing da otlar biron bir qo‘shimcha olmay asosdagi cho‘ziq unli bilan (II turlanish *lupo*, III turlanish *animali*, IV turlanish *gelu*) tugallanadi yoki –i qo‘shimchasini oladi (I turlanish *terra-i*, III turlanish *scriptor-i*, IV turlanish *fructu-i*, V turlanish *spe-i*).

d) Acc.sing. da mujskoy va jenskiy roddagi otlar barcha turlanishda –m qo‘shimchasini oladi (I turlanish *stellam*, II turlanish

vulpum, III turlanish *regem*, IV turlanish *manum*, V turlanish *spem*). Sredniy roddagi otlar bosh kelishikda qanday bo'lsa shunday qoladi.

e) Abl.sing. da barcha turlanishdagi otlar (III turlanishdagi undoshlar variantidan tashqari) qo'shimcha olmay asosidagi cho'ziq unlini saqlab qoladi. Faqat uchinchi turlanishdagi undoshlar variantida otlar **-e** qo'shimchasini oladi. Voc.sing. da bosh kelishik birlikda **-us** qo'shimchasi bilan tugagan II turlanishga kiruvchi otlar **-e** qo'shimchasini oladi. Qolgan turlanishlarda bosh kelishik bilan bir xil bo'ladi.

f) Nom., plur. da birinchi va ikkinchi turlanishlarda otlar **-i** qo'shimchasini oladi (I turlanish *stellae-stellai*, II turlanish *lupi*). Qolgan turlanishlarda esa ular **-s** qo'shimchasini oladi (III turlanish *homines*, IV turlanish *fructus*, V turlanish *res*). Sredniy roddagi otlar hamisha **-a** qo'shimchasini oladi.

g) Gen. plur. da barcha turlanishlarda bir xil **-um** qo'shimchasini oladi (I-turlanish *stellarum*, II turlanish *vulporum*, III turlanish *regum*, IV turlanish *fructuum*, V turlanish *rerum*).

h) Dat. va Abl. plur. da birinchi va ikkinchi turlanishlarda otlar bir xil **-is** qo'shimchasini, qolgan turlanishlarda **-ibus** yoki **ubus** qo'shimchalarini oladi (I turlanish *stellis*, II turlanish *vulpis*, III turlanish *regibus*, IV turlanish *fructibus*, V turlanish *rebus*).

i) Acc. plur. da barcha turlanishlarda otlar bir xil **-s** qo'shimchasini oladi (I turlanish *stellas*, II turlanish *vulpos*, III turlanish *reges*, IV turlanish *fructus*, V turlanish *res*). Sredniy roddagi otlar **-a** qo'shimchasini oladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, barcha turlanishdagi otlar o'ziga xos belgilariga ega bo'lishi bilan birga ko'plab umumiy tomonlarga ham ega ekan.

**BARCHA TURLANISHDAGI OTLARNING
KELISHIKLARDAGI QO‘SHIMCHALARI
CHOG‘ISHTIRMA JADVALI**

	I	II	IIIund.	IIIunl.	IV	V
Singularis						
	f.	m. n.	m.f.n.	n.	m. n.	f.
Nom.	-ă	-ūs, -ēr, -ūm	nol	-al, -ar, -ĕ	-ūs, -ū	-ēs
Gen.	-ae	-ī	-īs	-īs	-ūs	-ēi
Dat.	-ae	-ō	-ī	-ī	-uī, -ū	-ēi
Acc.	-ām	-ūm	-ēm	-al, -ar, -ĕ	-ūm, -ū	-ēm
Abl.	-ā	-ō	-ĕ	-ī	-ū -ū	-ē
Voc.	-ă	-ĕ, -ēr, -ūm	nol	-al, -ar, -ĕ	-ūs, -ū	-ēs
Pluralis						
Nom.	-ae	-ī, -ă	-ēs, -ă	-iă	-ūs, -uă	-ēs
Gen.	-ārum	-ōrum	-ūm	-iūm	-uūm	-ērūm
Dat.	-īs	-īs	-ībūs	-ībūs	-ībūs	-ēbūs
Acc.	-ās	-ōs, -ă	-ēs, -ă	-iă	-ūs, -uă	-ēs
Abl.	-īs	-īs	-ībūs	-ībūs	-ībūs	-ēbūs
Voc.	-ae	-ī, -ă	-ēs, -ă	-iă	-ūs, -ă	-ēs

I VA II TURLANISH SIFATLARI

Vita rustica parsimoniae, diligentiae est.

Qishloq hayoti tejamkorlik va g‘ayratchanlikka o‘rgatadi.

I va II turlanishga kiruvchi sifatlarning lug‘aviy shakli **-us, -a, -um** yoki **-er, -a, -ium** qo‘shimchali so‘zlar hisoblanadi.

Bulardan **-a** qo‘shimchali jenskoj roddagi sifatlari I turlanishdagi sifatlari deb qaraladi va ular xuddi otlarning I turlanishidagi qo‘shimchalarni qabul qiladi. **-us, -er** qo‘shimchali mujskoj, hamda **-um** qo‘shimchali sredniy roddagi sifatlari II turlanish sifatlari tashkil qilib, ular ham II turlanish otlaridek turlanadi.

Misollar: *ferus, fera, ferum* - yovvoyi, *firmus, firma, firmum* - qattiq, *liber, libera, liberum* - ozod, erkin, *pulcher, pulchra, pulchrum* - go‘zal, chiroyli. Shuni unutmaslik kerakki, o‘zbek tilida

grammatik rod kategoriyasi bo‘lmaganligi sababli aniqlovchi bilan aniqlanmish o‘rtasida moslashuv yo‘q, ya’ni so‘z birikmalarida sifat bilan ot kelishiklarda moslashmaydi.

Masalan: lotin tilida bosh kelishik birligida **puella bona**, qaratqich kelishigi birligida **puell-ae bon-ae**, o‘zbek tilida esa bosh kelishik birlikda **yaxshi qiz bola**, qaratqich kelishigida **yaxshi qiz bolaning**. Bundan xulosa shuki, turkiy tillarda sifatlar lotin tilidan farqli ravishda kelishiklarda turlanmaydi.

Masalan:

Singularis

Nom.	<i>discipulūs bonūs</i>	yaxshi o‘quvchi	<i>discipulī bonī</i>
Gen.	<i>discipulī bonī</i>	yaxshi o‘quvchining	<i>discipulōrum bonōrum</i>
Dat.	<i>discipulō bonō</i>	yaxshi o‘quvchiga	<i>discipulī bonīs</i>
Acc.	<i>discipulūm bonūm</i>	yaxshi o‘quvchini	<i>discipulōs bonōs</i>
Abl.	<i>discipulō bonō</i>	yaxshi o‘quvchida, dan	<i>discipulīs bonīs</i>
Voc.	<i>discipulē bonē</i>	yaxshi o‘quvchi	<i>discipulī bonī</i>

Pluralis

Singularis

Nom.	<i>filiā pulchrā</i>	chiroyli qiz	<i>malūm rubrūm</i>
Gen.	<i>filiae pulchrae</i>	chiroyli qizning	<i>malī rubrī</i>
Dat.	<i>filiae pulchrae</i>	chiroyli qizga	<i>malō rubrō</i>
Acc.	<i>filiām pulchrām</i>	chiroyli qizni	<i>malūm rubrūm</i>
Abl.	<i>filiā pulchrā</i>	chiroyli qizda, dan	<i>malō rubrō</i>
Voc.	<i>filiā pulchrā</i>	chiroyli qiz	<i>malūm rubrūm</i>

Pluralis

Nom.	<i>filiae pulchrae</i>	<i>malā rubrā</i>
Gen.	<i>filiārum pulchrārum</i>	<i>malōrum rubrōrum</i>
Dat.	<i>filiīs pulchrīs</i>	<i>malis rubris</i>
Acc.	<i>filiās pulchrās</i>	<i>malā rubrā</i>
Abl.	<i>filiīs pulchrīs</i>	<i>malīs rubrīs</i>
Voc.	<i>filiae pulchrae</i>	<i>malā rubrā</i>

SIFATLARNING UCHINCHI TURLANISHI

Beatus, qui prodest, quibus potest.

Har kim qo‘lidan kelgan yordamini
o‘zgaga ayamasa, u baxtlidir.

Uchinchi turlanishga uchala roddagi sifatlar ham kirib, rod qo‘shimchalariga qarab uch guruhga bo‘linadi; 1) uch qo‘shimchali sifatlar, ya‘ni mujskoy roddagi sifatlar Nom.sing. da **-er**, jenskiy roddagi sifatlar **-is**, sredniy roddagi sifatlar **-e** qo‘shimchalarini oladi. Masalan: *acer, acris, acre* - o‘tkir. 2) ikki qo‘shimchali sifatlar, ya‘ni mujskoy va jenskiy roddagi sifatlar Nom.sing.da bir xil **-is**, sredniy roddagi sifatlar **-e** qo‘shimchalarni oladi. Masalan: *facilis, facilis, facile* - yengil. 3) bir qo‘shimchali sifatlar,y‘ani uchala roddagi sifatlar ham Nom.sing.da bir xil **-s**, **-x** yoki **-r** qo‘shimchalarini oladi. Masalan: *audax, audacis*- jasur, qo‘rqmas, *sapiens, sapientis* - aqli, bilimdon, *pauper, pauperis* - kambag‘al, *dives, divitis* -boy,

Uchinchi turlanish sifatлари xuddi otlarning uchinchi turlanishidagi unlilar variantidek turlanadi.

	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	<i>acĕr</i>	<i>acrĭs</i>	<i>acrĕ</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acriă</i>
Gen.	<i>acris</i>	<i>acris</i>	<i>acris</i>	<i>acriŭm</i>	<i>scriŭm</i>	<i>acriŭm</i>
Dat.	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭbŭs</i>	<i>acrĭbŭs</i>	<i>acrĭbŭs</i>
Acc.	<i>acrĕm</i>	<i>acrĕm</i>	<i>acrĕ</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acriă</i>
Abl.	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭ</i>	<i>acrĭbŭs</i>	<i>acrĭbŭs</i>	<i>acrĭbŭs</i>
Voc.	<i>acĕr</i>	<i>acrĭs</i>	<i>acrĕ</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acrĕs</i>	<i>acriă</i>

Pauper, pauperis - kambag‘al, *dives, divitis* - boy, *vetus, veteris* - keksa, *princeps, principis* - asosiy, *particeps, participis* - qatnashayotgan kabi uchinchi guruhga kiruvchi bir qo‘shimchali sifatlar uchinchi turlanish otlarining undoshlar variantidek turlanadi.

SIFAT DARAJALARI GRADUS COMARATIONIS

Fervet olla, vivit amicitia.
Qozoning qaynasa, do‘stlar uzilmaydi.

Lotin tilida ham o‘zbek tilidagi kabi sifatlarning uchta darajasi bor: oddiy daraja (gradus positivus), qiyosiy daraja (gradus comparativus), orttirma daraja (gradus superlativus). Sifat darajalarining yasalishi lotin tilida o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi.

SIFATLARNING QIYOSIY DARAJASI GRADUS COMPARATIVUS

Sifatlarning qiyosiy darajasini yasash uchun ularning Gen.sing. shakli olinib, I turlanishdan **–ae**, II turlanishdan **–i** va **III** turlanishdan **–is** qo‘shimchalari olib tashlanadi va ularning o‘rniga mujskoy va jenskiy roddagi sifatlardan uchun **–ior**, sredniy roddagi sifatlardan uchun esa **–ius** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan:

Gradus positivus Gen.sing. Gradus comparativus

m f n		m.f. n
<i>clarus, a, um</i> – mashhur	<i>clari, clarior, clarior</i> – mashhurroq	
<i>miser, a, um</i> – baxtsiz	<i>miseri, miserior, miserius</i> – baxtsizroq	
<i>celer, is, e-</i> tez	<i>celeris, celerior, celerius</i> – tezroq	

Sifatlarning qiyosiy darajasi xuddi otlarning uchinchi turlanishidagi undosh variantidek turlanadi.

Singularis			Pluralis			
m.	f.	n.	m.	f.	n.	
Nom.	<i>clarior</i>	<i>clarior</i>	<i>clariūs</i>	<i>clariōrēs</i>	<i>clariōrēs</i>	<i>clariōrā</i>
Gen.	<i>clariōrīs</i>		<i>clariōrum</i>			
Dat.	<i>clariōrī</i>		<i>clariōrībūs</i>			
Acc.	<i>clariōrēm</i>	<i>clariūs</i>	<i>clariōrēs</i>	<i>clariōrā</i>		
Abl.	<i>clariōrē</i>		<i>clariōrībūs</i>			
Voc.	<i>clarior</i>	<i>clarior</i>	<i>clariūs</i>	<i>clariōrēs</i>	<i>clariōrēs</i>	<i>clariōrā</i>

SIFATLARNING ORTTIRMA DARAJASI GRADUS SUPERLATIVUS

Lotin tilida ham sifatlarning orttirma darajasi xuddi o‘zbek tilidagidek birmuncha murakkab bo‘lib, quyidagi usullar bilan yasaladi:

a) sifatlarning orttirma darajasi (gradus superlativus) ni yasash uchun ularning asosi olinib, shu asosga **-issim-** suffiksi va **-us, -a, -um** rod qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan:

Gradus positivus	Gen.sing.	Gradus superlativus
m. f. n.		m. f. n.
<i>clarus, a, um</i> - mashhur	<i>clari</i>	<i>clarissimus, a, um</i> – eng mashhur
<i>fortis, e-</i> - kuchli	<i>fortis</i>	<i>fortissimus, a, um</i> – eng kuchli
<i>felix</i> - baxtli	<i>felicis</i>	<i>felicissimus, a, um</i> – eng baxtli

b) agar sifatlar Nom.sing. da **-er** qo‘shimchasi bilan tugallangan bo‘lsa shu **-er** qo‘shimchasidan keyin **-rim-** suffiksi va **-us, -a, -um** rod qo‘shimchalari qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan:

Gradus positivus	Gradus superlativus
m. f. n.	m. f. n.
<i>niger, gra, grum-</i> qora	<i>nigerrimus, a, um</i> – juda qora
<i>acer, acris, acre-</i> o‘tkir	<i>acerrimus, a, um</i> – juda o‘tkir
<i>pulcher, chra, chrum-</i> go‘zal	<i>pulcherrimus, a, um</i> – eng go‘zal

c) asosi **-l** undosh tovushi bilan tugallangan uchinchi turlanishga kiruvchi quyidagi oltita sifatlarning orttirma darajasi shu sifatlarning asosiga **-lim-** suffiksi hamda **-us, -a, -um** rod qo‘shimchalari qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan:

Gradus positivus	Gen.sing.	Gradus superlativus
<i>facilis, facile</i> - yengil	<i>facilis</i>	<i>facillimus, a, um</i>
<i>difficilis, difficile-</i> og‘ir	<i>difficilis</i>	<i>difficillimus, a, um</i>
<i>similis, simile-</i> o‘xshash	<i>similis</i>	<i>simillimus, a, um</i>
<i>dissimilis, imile-</i> o‘zgacha	<i>dissimilis</i>	<i>dissimillimus, a, um</i>
<i>humilis, humile-</i> past	<i>humilis</i>	<i>humillimus, a, um</i>
<i>gracilis, gracile-</i> yoqimli	<i>gracilis</i>	<i>gracillimus, a, um</i>

Qolgan sifatlarning orttirma darajasi xuddi **a** bo‘limidagidek hosil qilinadi.

Sifatlarning orttirma darajasi kelishiklarda xuddi sifatlarning birinchi va ikkinchi turlanishidek turlanadi.

ANALITIK USUL BILAN YASALUVCHI SIFAT DARAJALARI

Agar I-II turlanishga kiruvchi sifatlarning oddiy darajasidagi rod qo‘shimchalaridan oldin (asosi) **e, u, i** unlilar kelsa, bunday sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari sintetik (qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan emas) usul bilan emas, balki o‘zbek tilidagi kabi, ravishlar yordamida hosil qilinadi. Ya’ni, qiyosiy daraja *magis*, orttirma daraja esa *maxime* ravishlari yordamida yasaladi. Masalan:

Positivus

idoneus, a, um - qulay

necessarius, a, um - zarur

perspicus, a, um - tiniq

Comparativus

magis idoneus, a, um – qulayroq

magis necessarius, a, um - zarurroq

magis perspicus, a, um - tiniqroq

Superlativus

maxime idoneus, a, um – eng qulay

maxime necessarius, a, um – eng zarur

maxime perspicus, a, um – juda tiniq

Agar I-II turlanishga kiruvchi sifatlarning *-dicus, -ficus* va *-volus* qo‘shimchalari bilan tugallangan bo‘lsa, bunday sifatlarning asosiga qiyosiy daraja yasash uchun **-entior, entius**, orttirma daraja yasash uchun esa **-entissimus, -entissima, -entissimum** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Masalan:

Positivus

maledicus, a, um - yomon so‘z

magnificus, a, um - hashamatli

bonevolus, a, um – xushtabiatli

Comparativus

maledicentior, ius

magnificentior, ius

bonevolentior, ius

Superlativus

maledicentissimus, a, um - juda yomon so‘zli

magnificentissimus, a, um - juda hashamatli

bonevolentissimus, a, um - juda xushtabiatli

SUPLETIV USULDA YASALUVCHI SIFAT DARAJALARI

Shakllari turli xil asoslardan tashkil topgan qiyosiy va orttirma darajalari **supletiv** darajalar deb ataladi. Bunday sifatlarning jami oltita boʻlib, ular I, II, III turlanish otlaridek turlanadi. Masalan:

Positivus

bonus, a, um - yaxshi
malus, a, um - yomon
magnus, a, um - katta
parvus, a, um - kichik
multi, ae, a - koʻp

Comparativus

melior, meliūs - yaxshiroq
pejor, pejūs - yomonroq
maior, maiūs - kattaroq
minor, minūs - kichikroq
plures, plurā - koʻproq

Superlativus

optīmus, a, um - juda yaxshi
pessīmus, a, um - juda yomon
maxīmus, a, um - juda katta
miniūs, a, um - juda kichik
plurimī, ae, ā - juda koʻp

RAVISH

ADVERBIUM

Facile dictu, difficile factu.
Aytish oson, bajarish qiyin.

Lotin tilida ham ravishlar xuddi oʻzbek tilidagi kabi oʻzgarmas soʻz turkumi hisoblanib, yasaliş jihatidan ikki xil boʻladi: a) tub ravishlar, b) yasama ravishlar.

Tub ravishlar quyidagilar: *olim* – qachonlardir, *semper* - hamisha, *ibi* - u yerda, *ubi* - qayerda, *jam* - hatto, *quot* - qancha, *cras* - ertaga, *hodie* - bugun va h.k.

Yasama ravishlar asosan sifatlardan tashkil topib quyidagicha hosil qilinadi:

a) birinchi va ikkinchi turlanish sifatlarining asosiga –e qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan yasaladi. Masalan:

Adjectivum	Gen.sing.	Adverbium
<i>magnus, a, um</i> - katta	<i>magni</i>	<i>magnē</i>
<i>longus, a, um</i> - uzun	<i>longi</i>	<i>longē</i>
<i>rectus, a, um</i> – to‘g‘ri	<i>recti</i>	<i>rectē</i>
<i>pulcher, chra, chrum</i> - chiroyli	<i>pulchri</i>	<i>pulchrē</i>

b) uchinchi turlanish sifatlarining asosiga **-iter** qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan:

Adjectivum	Gen.sing.	Adverbium
<i>acer, acris, acre</i> - o‘tkir	<i>acris</i>	<i>acrīter</i>
<i>velox</i> - tez	<i>velocis</i>	<i>velocīter</i>
<i>atrox</i> - zolim	<i>atrocis</i>	<i>atrocīter</i>

v) agar uchinchi turlanish sifatlarining asosi **-nt** bilan tugallansa, shu asosga **-er** qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan:

Adjectivum	Gen.sing.	Adverbium
<i>sapiens</i> - aqqli	<i>sapientis</i>	<i>sapienter</i>
<i>recens</i> – yangi, yosh	<i>recentis</i>	<i>recenter</i>

g) ba‘zan ikkinchi turlanishdagi sifatlar Abl. sing. da ham ravish vazifasida qo‘llaniladi. Masalan: *rarus, a, um* – kamdan-kam - *raro*, *multus, a, um* – ko‘p - *multo*, *citus, a, um* – tez - *cito*.

d) sredniy roddagi sifatlar ham ba‘zi hollarda ravish vazifasida qo‘llanilishi mumkin. Masalan: *forte*- mustahkam, *maximum*- eng katta, *minimum*- juda kichkina.

RAVISHLARNING QIYOSIY VA ORTTIRMA DARAJALARI

Citius, altius, fortius.

Tezroq, balandroq, kuchliroq.

Sifatlardan tashkil topgan yasama ravishlargina oddiy, qiyosiy va orttirma darajalarga ega. Yasama ravishlarning qiyosiy darajasi sredniy roddagi sifatning qiyosiy darajasi bilan bir xildir, ya‘ni – **ius** qo‘shimchasini oladi. Masalan:

Adjectivum	Gen.sing.	Adverbium	Comarativus
<i>latus, a, um</i> - keng	<i>lati</i>	<i>late</i>	<i>latiūs</i> - kengroq
<i>fortis, e</i> - kuchli	<i>fortis</i>	<i>fortiter</i>	<i>fortiūs</i> - kuchliroq
<i>altus, a, um</i> – baland	<i>alti</i>	<i>alte</i>	<i>altiūs</i> - balandroq
<i>citus, a, um</i> - tez	<i>citi</i>	<i>cite</i>	<i>citiūs</i> - tezroq

Ravishlarning orttirma darajasini yasash uchun sifatlarning orttirma darajasidagi **-us, -a, -um** rod qo‘shimchalari olib tashlanadi va ularning o‘rniga **-e** qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan:

Adjectivum	Gen.sing.	Adverbium	Superlativus
<i>felix</i> - baxtli	<i>felicis</i>	<i>feliciter</i>	<i>felicissime</i>
<i>clarus, a, um</i> - mashhur	<i>clari</i>	<i>clarē</i>	<i>clarissime</i>
<i>sacer, cra, crum</i> - muqaddas	<i>sacri</i>	<i>sacrē</i>	<i>sacerrime</i>
<i>acer, cris, cre</i> - o‘tkir	<i>acris</i>	<i>acrīter</i>	<i>acerrime</i>
<i>facilis, e</i> - yengil	<i>facilis</i>	<i>faciliter</i>	<i>facillime</i>

EGALIK OLMOSHLARI PRONOMINA POSSESSIVA

Omnia mea mecum porto.
Bor bisotim o‘zimda.

Lotin tilida quyidagi egalik olmoshlari bo‘lib, ular sifatlari kabi rod, son va kelishik grammatik kategoriyalariga ega:

	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
I.	<i>meus</i>	<i>mea</i>	<i>meum</i>	<i>noster</i>	<i>nostra</i>	<i>nostrum</i>
II.	<i>tuus</i>	<i>tua</i>	<i>tuum</i>	<i>vester</i>	<i>vestra</i>	<i>vestrum</i>
III.	<i>suus</i>	<i>sua</i>	<i>suum</i>	-----	-----	-----

Egalik olmoshlari xuddi birinchi va ikkinchi turlanishga kiruvchi sifatlari kabi bir xil rod qo‘shimchalariga ega bo‘lganligi sababli kelishiklarda shu sifatlardек turlanadi. Masalan:

	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	<i>meus</i>	<i>mea</i>	<i>meum</i>	<i>mei</i>	<i>meae</i>	<i>meā</i>

Gen.	<i>mei</i>	<i>meae</i>	<i>mei</i>	<i>meōrum</i>	<i>meārum</i>	<i>meōrum</i>
Dat	<i>meō</i>	<i>meae</i>	<i>meō</i>	<i>meīs</i>	<i>meīs</i>	<i>meīs</i>
Acc.	<i>meum</i>	<i>meam</i>	<i>meum</i>	<i>meōs</i>	<i>meās</i>	<i>meā</i>
Abl.	<i>meō</i>	<i>meā</i>	<i>meō</i>	<i>meīs</i>	<i>meīs</i>	<i>meīs</i>
Voc.	<i>mi</i>	<i>mea</i>	<i>meum</i>	<i>mei</i>	<i>meae</i>	<i>mea</i>

Eslatma: O‘zbek tilida egalik olmoshlari bo‘lmaganligi sababli lotin tilidagi egalik olmoshlari **meus, tuus, noster, vester** o‘zbek tiliga kishilik olmoshlarning qaratqich kelishigidagi shakli hamda egalik qo‘shimchalari orqali tarjima qilinadi. Masalan: *meus pater* - mening ota=m, *tuus pater* – sening ota=ng, *suus pater* - uning ota=si.

KISHILIK OLMOSHLARI PRONOMINA PERSONALIA

Parva vitia aliorum ridetis, sed magna,
quae vos dedecorant, non videtis.

Boshqalrning kichik xatosidan kulasiz, o‘zingizning katta aybin-gizni ko‘rmaysiz.

Lotin tilida kishilik olmoshlari quyidagilar: **ego** - men, tu- sen, **nos** -biz, **vos** - siz. Lotin tilida uchinchi shaxs birlik va ko‘plikni ifodalovchi aniq kishilik olmoshlari yo‘q, ularning o‘rniga **is, ea, id** kabi ko‘rsatish olmoshlari ishlatiladi.

Kishilik olmoshlari kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

Singularis

Nom.	<i>ego</i> men	<i>tu</i> sen	-
Gen.	<i>mei</i> mening	<i>tui</i> sening	<i>sui</i> uning
Dat.	<i>mihi</i> menga	<i>tibi</i> senga	<i>sibi</i> unga
Acc.	<i>me</i> meni	<i>te</i> seni	<i>se</i> uni
Abl.	<i>me</i> menda, mendan	<i>te</i> senda, sendan	<i>se</i> unda, undan

Pluralis

	Nom. <i>nos</i>	<i>bizlar</i>	<i>vos</i>	<i>sizlar</i>
Gen.	<i>nostri</i> bizlarning	<i>vestri</i> sizlarning		
	<i>nostrum</i> bizlardan	<i>vestrum</i> sizlardan		

	birimizni		biringizni
Dat. <i>nobīs</i>	bizga	<i>vobīs</i>	sizga
Acc. <i>nos</i>	bizni	<i>vos</i>	sizni
	Abl. <i>nobīs</i>	bizda, bizdan	<i>vobīs</i> sizda, sizdan

Eslatma: Baʼzan Ablativus kelishigida kishilik olmoshlari cum predlogi bilan qoʻshilib keladi va oʻzbek tiliga **mecum** - men bilan, **tecum** - sen bilan, **nobiscum** - biz bilan, **vobiscum** -siz bilan, **secum** - u bilan deb tarjima qilinadi.

KOʻRSATISH OLMOSHLARI PRONOMINA DEMONSTRATIVA

Vita sine libertate, nihil.
Erkinlik boʻlmagan hayot, hayot emas.

Lotin tilida koʻrsatish olmoshlarining bir qancha shakllari bor boʻlib, ularning keng qoʻllanuvchilari quyidagilar hisoblanadi: **hic**, **haec**, **hoc** - mana bu, soʻzlovchiga nisbatan yaqinda joylashgan predmetni koʻrsatishda qoʻllaniladi. **ille**, **illa**, **illud** - ana u. Soʻzlovchiga nisbatan oʻzoqda joylashgan predmetni koʻrsatishda qoʻllaniladi.

Iste, ista, istud - oʻsha. Ikkinchi shaxsga tegishli (daxldor) narsani koʻrsatishda qoʻllaniladi.

Is, ea, id - u, oʻsha. Uchinchi shaxsga tegishli pryedmetni koʻrsatishda yoki uchinchi shaxs kishilik olmoshi vazifasida qoʻllaniladi.

Koʻrsatish olmoshlarining turlanishida quyidagilarni bilish lozim; a) koʻrsatish olmoshlari Gen. sing.da barcha rodlarda ham – **ius** qoʻshimchasini oladi. b) Dat.sing.da esa, hamma rodlarda **-i** qoʻshimchasini oladi. Qolgan barcha kelishiklarda koʻrsatish olmoshlari birinchi va ikkinchi turlanish sifatlaridek turlanadi.

	Singularis			Pluralis		
	ille, illa, illud - ana u					
	m	f	n	m	f	n
Nom.	<i>illē</i>	<i>illā</i>	<i>illud</i>	<i>illī</i>	<i>illae</i>	<i>illā</i>
Gen.	<i>lliūs</i>	<i>illiūs</i>	<i>illiūs</i>	<i>illōrum</i>	<i>illārum</i>	<i>illōrum</i>
Dat.	<i>illī</i>	<i>illī</i>	<i>illī</i>	<i>illīs</i>	<i>illīs</i>	<i>illīs</i>

Acc.	<i>illum</i>	<i>illam</i>	<i>illud</i>	<i>illōs</i>	<i>illās</i>	<i>illā</i>
Abl.	<i>illō</i>	<i>illā</i>	<i>illō</i>	<i>illīs</i>	<i>illīs</i>	<i>illīs</i>
Voc.	<i>illē</i>	<i>illā</i>	<i>illud</i>	<i>illī</i>	<i>illae</i>	<i>illā</i>

is, ea, id - u, o‘sha

Nom.	<i>īs</i>	<i>ēa</i>	<i>id</i>	<i>ēi(ii)</i>	<i>eae</i>	<i>eā</i>
Gen.	<i>ejūs</i>	<i>ejūs</i>	<i>ejūs</i>	<i>eōrum</i>	<i>eārum</i>	<i>eōrum</i>
Dat.	<i>eī</i>	<i>eī</i>	<i>eī</i>	<i>eīs(iis)</i>	<i>eīs(iis)</i>	<i>eīs(iis)</i>
Acc.	<i>eum</i>	<i>eam</i>	<i>īd</i>	<i>eōs</i>	<i>eās</i>	<i>eā</i>
Abl.	<i>eō</i>	<i>eā</i>	<i>eō</i>	<i>eīs(iis)</i>	<i>eīs(iis)</i>	<i>eīs(iis)</i>
Voc.	<i>īs</i>	<i>ēa</i>	<i>id</i>	<i>ēi(ii)</i>	<i>eae</i>	<i>eā</i>

idem, eadem, idem - o‘shaning o‘zi

Nom.	<i>īdem</i>	<i>eādem</i>	<i>īdem</i>	<i>eīdem</i>	<i>eaedem</i>	<i>eādem</i>
Gen.	<i>ejusdem</i>		<i>eōrundem eārundem eōrundem</i>			
Dat.	<i>eidem</i>		<i>eīsdem (iisdem)</i>			
Acc.	<i>eundem</i>	<i>eandem</i>	<i>idem</i>	<i>eōsdem</i>	<i>eāsdem</i>	<i>eādem</i>
Abl.	<i>eodem</i>	<i>eadem</i>	<i>eodem</i>	<i>eīsdem (iisdem)</i>		
Voc.	<i>idem</i>	<i>eadem</i>	<i>idem</i>	<i>eīdem</i>	<i>eādem</i>	<i>eādem</i>

hic, haec, hoc - mana bu

Nom.	<i>hīc</i>	<i>haec</i>	<i>hōc</i>	<i>hī</i>	<i>hae</i>	<i>haec</i>
Gen.	<i>huiūs</i>	<i>huiūs</i>	<i>huiūs</i>	<i>hōrum</i>	<i>hārum</i>	<i>hōrum</i>
Dat.	<i>huīc</i>	<i>huīc</i>	<i>huīc</i>	<i>hīs</i>	<i>hīs</i>	<i>hīs</i>
Acc.	<i>hūnc</i>	<i>hānc</i>	<i>hōc</i>	<i>hōs</i>	<i>hās</i>	<i>haec</i>
Abl.	<i>hōc</i>	<i>hāc</i>	<i>hōc</i>	<i>hīs</i>	<i>hīs</i>	<i>hīs</i>
Voc.	<i>hīc</i>	<i>haec</i>	<i>hōc</i>	<i>hī</i>	<i>hae</i>	<i>haec</i>

Eslatma: **iste, ista, istud** ko‘rsatish olmoshlari xuddi **ille, illa, illud** kabi, **idem, eadem, idem** ko‘rsatish olmoshlari esa **is, ea, id** olmoshlaridek turlanadi. Idem, eadem, idem - o‘shaning o‘zi, uning o‘zi, ko‘rsatish olmosh is va kuchaytiruvchi dem ning qo‘shilishidann iborat bo‘lib, turlanganda faqat ko‘rsatish olmoshi is turlanadi.

NISBIY OLMOSHLAR PRONOMINA RELATIVA

Qui querit, reperit.
Izlagan topadi.

Lotin tilida nisbiy olmoshlar **qui, quae, quod** lar bo‘lib, gapda sifat shaklida “**qaysikim**”, ot shaklida esa “**kim, nima**” kabi ma’nolarni anglatadi. Nisbiy olmoshlar kelishiklarda xuddi ko‘rsatish olmoshlaridek turlanadi. Masalan:

	Singularis			Pluralis		
	m.	f.	n.	m.	f.	n.
Nom.	<i>quī</i>	<i>quae</i>	<i>quōd</i>	<i>quī</i>	<i>quae</i>	<i>quae</i>
Gen.	<i>c u j ũ s</i>			<i>quōrum</i>	<i>quārum</i>	<i>quōrum</i>
Dat.	<i>c u ī</i>			<i>q u ī b u s</i>		
Acc.	<i>quem</i>	<i>quam</i>	<i>quōd</i>	<i>quōs</i>	<i>quās</i>	<i>quae</i>
Abl.	<i>quō quā quō</i>			<i>q u ī b ũ s</i>		

Ba’zan nisbiy olmoshlar kelishigida cum predlogi bilan qo‘shilib keladi “*q u o c u m, q u i b u s c u m*” va o‘zbek tiliga “**qaysikim u bilan, kim bilan, nima bilan**” deb tarjima qilinadi.

SO‘ROQ OLMOSHLARI PRONOMINA INTERROGATIVA

Quisquis amat ranam, putat ranam esse Diana.
Baqaga ishqı tushgan uni Diana deb his qiladi.

So‘roq olmoshlari *qui?, quae?, quod?* “**qaysi?**”, *quis?* “**kim**” va *quid?* “**nima**” lar bo‘lib, kelishiklarda ko‘plikda turlanmay, birlikda xuddi nisbiy olmoshlar kabi turlanadi. Ko‘rsatish olmoshlar *uter, utra, utrum?* “**qaysi biri?, ikkalasidan qaysi biri?** ille, illa, illud ko‘rsatish olmoshlaridek turlanadi. Masalan:

	m.	n.	m	f	n
Nom.	<i>quīs?</i>	<i>quīd?</i>	<i>utēr?</i>	<i>utrā?</i>	<i>utrūm?</i>
Gen.	<i>cuiūs?</i>		<i>utriūs?</i>		
Dat.	<i>cui?</i>		<i>utri?</i>		
Acc.	<i>quēm?</i>	<i>quid?</i>	<i>utrūm?</i>	<i>utrām?</i>	<i>utrūm?</i>
Abl.	<i>q u ō?</i>		<i>utrō?</i>	<i>utrā?</i>	<i>utrō?</i>

GUMON OLMOSHLARI PRONOMINA INDEFINITA

Quid dubitas ne faceris.
Ikkilangan ishingni qilma.

Lotin tilida gumon olmoshlari shakl jihatidan soʻroq olmoshlarining aynan oʻzi boʻlsada, faqatgina oʻzidan keyin *-ali, -piam, -quam, -dam, -que, -vis, -libet, -cunque* kabi yuklamalar bilan qoʻshilib, gumon olmoshlarini ifodalaydi. Masalan:

<i>aliquis, aliqua, aliquid</i>	biror bir kimsa
<i>quispiam, quaequam, quidpiam</i>	kimdir
<i>quisquam, quidquam</i>	kimdir

Gumon olmoshlari ham nisbiy olmoshlar kabi turlanadi. Turlanganda noaniqlik maʼnosini ifodalovchi yuklamalar oʻzgarmay qoladi.

PREDLOGLAR PRAEPOSITIONES

Per aspera ad astra.
Mashaqqatlar orqali maqsadga yetish.

Lotin tilida predloglar juda keng qoʻllaniluvchi yordamchi soʻzlar hisoblanib, asosan Accusativus va Ablativus kelishiklari bilan qoʻllanadi.

1. Ablativus kelishigi bilan qoʻllanuvchi predloglar: **a, ab, abs - dan**; de-**haqida, -dan**, yoki narsaning qoʻzgʻalishini, yoʻnalishini bildiradi, **-dan, tomonidan**; **ex, e** ish-harakatning biror yerdan, narsadan yoki biror narsa ichidan boshlanishini bildiradi, **-dan**; cum **- bilan**; pro **-dan nariga, -ning ortiga, -ga, -da, uchun**; prae **- yonida, oldida, yaqinida**; sine – **yoʻqlik, kamlik** maʼnolarini bildiradi, **-siz, be-, kam, yoʻq**.

2. Accusativus kelishigi bilan qoʻllanuvchi predloglar: ad- turgan joyni bildiradi, yaqinida, yonida, oldida; qayerga, nimaga, kimga soʻroqlariga javob boʻlib keladi; **-ga**, ustiga; ish-harakatning yoʻnalishini bildiradi; **-ga**, sari, qarab, tomon, yoniga, tarafiga, **--gacha, -ga** qadar; ante **-gacha, -ga** qadar; apud - yonida, oldida, yaqinida; contra - qarshida, qarshisida, roʻparasida; inter - orasida,

o‘rtasida, oralig‘ida, mobaynida; per, trans - ustidan, orqali, bilan; post - **dan** keyin.

3. In va sub predloglari Accusativus kelishigida, qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘ladi: in domum - uyga, sub terram - er ostiga, Ablativus kelishigida kelsa, qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, in domo- uyda, sub terra - yer ostida.

4. Birinchi turlanishga kiruvchi jenskiy roddagi *causa* va *gratia* otlari ba‘zan Dativus kelishigida kelib, **sababli, bo‘lgani uchun, shuning uchun, shu sababli** deb tarjima qilinadi.

SONLAR

NUMERALIA

Duos, qui sequitur lepores, neutrum capit.
Ikki quyonni quvgan birini ham tuta olmaydi.

Lotin tilida sonlar grammatik jihatidan to‘rt turga bo‘lib o‘rganiladi: sanoq sonlar (cardinalia), tartib sonlar (ordinalia), taqsim sonlar (distributiva) va ravish sonlar (adverbia).

SANOQ SONLAR - CARDINALIA

Sanoq sonlar xuddi arab tilidagi kabi raqam va yozuv orqali ifodalanadi. Rim raqamlari arab raqamlariga nisbatan soddaroq bo‘lib, ular jami yettita belgidan iboratdir. Bular quyidagilar:

I bir, V besh, X o‘n, L ellik, C yuz, D besh yuz, M ming. Ushbu belgilarning o‘rin almashuvi orqali xohlagan sonni ifodalash mumkin. Buning uchun qaysi belgi qaysi belgidan oldin yoki keyin kelishini esda saqlash lozim. Bu quyidagicha:

a) I belgisi V va X belgilaridan oldin yoki shu belgilardan keyin keladi: IV - 4, VI - 6, VII - 7, VIII - 8, IX - 9, XI - 11, XII - 12, XIII - 13 va h.;

b) X belgisi L va C belgilaridan oldin yoki keyin keladi: XL - 40 LX - 60, LXX - 70, LXXX - 80, XC - 90, CX - 110, CXX - 120 va h.;

c) C belgisi D va M belgilaridan oldin yoki keyin keladi: CD - 400, DC - 600, DCC - 700, CM - 900, MC - 1100, MCC - 1200 va h.

SANOQ SONLARNING YASALISHI

a) Sanoq sonlardan I dan IO gachasi tub sonlar hisoblanib, ularni yodda saqlamoq kerak. Ular quyidagilar:

I	<i>unus, a, um</i>	6	<i>sex</i>
2	<i>duo, ae, o</i>	7	<i>septem</i>
3	<i>tres, tria</i>	8	<i>octo</i>
4	<i>quatuor</i>	9	<i>novem</i>
5	<i>quinque</i>	IO	<i>decem</i>

b) II dan I7 gacha sonlar avval birlik keyin o'nlik qo'shish yo'li bilan yasaladi. Masalan:

II	<i>undecim</i>	15	<i>quindecim</i>
I2	<i>duodecim</i>	16	<i>sedecim</i>
I3	<i>tredecim</i>	17	<i>septendecim</i>
I4	<i>quattuordecim</i>		

c) I8, I9, 28, 29, 38, 39 kabi sonlarni yasash uchun birlik va o'nlik sonlari o'rtasiga **de** predlogi yoziladi va bir kam yoki ikki kam deb sanaladi.

I8	<i>duodeviginti</i>	38	<i>duodequadraginta</i>
I9	<i>undeviginti</i>	39	<i>undequadraginta</i>
28	<i>duodetriginta</i>	48	<i>duodequinquaginta</i>
29	<i>undetriginta</i>	49	<i>undequinquaginta</i>

d) O'nlik sonlarni yasash uchun birlik sonlaridan keyin *-ginta* qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan:

20	<i>viginti</i>		
30	<i>triginta</i>	70	<i>septuaginta</i>
40	<i>quadraginta</i>	80	<i>octoginta</i>
50	<i>quinquaginta</i>	90	<i>nonaginta</i>
60	<i>sexaginta</i>		

e) Yuzliklarni yasash uchun birlik sonlaridan keyin ikki yuz, uch yuz va olti yuz sonlarini ifodalashda *-centi*, qolgan yuzliklarni ifodalashda *-genti* qo'shimchalari qo'shiladi.

100	<i>centum</i>	600	<i>sescenti, ae, a</i>
200	<i>ducenti, ae, a</i>	700	<i>septingenti, ae, a</i>
300	<i>trecenti, ae, a</i>	800	<i>octingenti, ae, a</i>

f) 21 dan 27 gacha, 31 dan 37 gacha va hokazo sonlarni yasashda ikki xil usul qo'llaniladi: a) avval o'nlik keyin birlik *viginti tres, viginti sex*; yoki

b) avval birlik keyin o‘nlik *tres et viginti, sex et viginti*.

SANOQ SONLARNING TURLANISHI

Lotin tilida sanoq sonlardan *unus,a,um, duo,ae, tres,ia, ducenti, -ae,-a,* va qolgan yuzliklar, hamda *milia* sonlari kelishiklarda turlanadi. Boshqa sonlar esa turlanmaydi.

Unus,a,um soni faqat birlik sonda xuddi ko‘rsatish olmoshlaridek turlanadi.

m. f. n.

Nom. *unus una unum*

Gen. *uniūs uniūs uniūs*

Dat. *unī unī unī*

Acc. *unum unam unum*

Abl. *unō unā unō*

Voc. *unus una unum*

Ikki *duo,ae* soni faqat ko‘plikda, xuddi I va II turlanish otlaridek qo‘shimchalar olib turlanali.

m. f. n.

Nom. *duo duae duo*

Gen. *duōrum duārum duōrum*

Dat. *duobūs duabūs duobūs*

Acc. *duōs duās duo*

Abl. *duobūs duabūs duobūs*

Voc. *duo duae duo*

Uch *tres,ia* soni faqat ko‘plikda uchinchi turlanishi otlaridagi unlilar variantidek turlanadi.

m.f. n.

Nom. *trēs triā*

Gen. *triūm triūm*

Dat. *tribūs tribūs*

Acc. *trēs triā*

Abl. *tribūs tribūs*

Voc. *trēs triā*

Ikki yuzdan to‘qqiz yuzgacha bo‘lgan sonlar ham faqat ko‘plik sonda, I va II turlanish otlaridek turlanadi.

	m.	f.	n.
Nom.	<i>ducenti</i>	<i>ducentae</i>	<i>ducentā</i>
Gen.	<i>ducentōrum</i>	<i>ducentārum</i>	<i>ducentōrum</i>
Dat.	<i>ducentīs</i>	<i>ducentīs</i>	<i>ducentīs</i>
Acc.	<i>ducentōs</i>	<i>ducentās</i>	<i>ducentā</i>
Abl.	<i>ducentīs</i>	<i>ducentīs</i>	<i>ducentīs</i>
Voc.	<i>ducenti</i>	<i>ducentae</i>	<i>ducentā</i>

TARTIB SONLAR

NUMERALIA ORDINALIA

Primus inter pares.

Tenglar ichida yagona.

Lotin tilida ham tartib sonlar xuddi nemis va rus tillaridagi kabi rod, son hamda kelishik qo‘shimchalariga ega bo‘lib, I-II turlanish sifatlaridek turlanadi. Tartib sonlarning yasalishi quyidagi qoidalariga binoan yuz beradi:

a) birinchi va ikkinchi tartib sonlari xuddi rus, ingliz, nemis va fransuz tillaridagi kabi boshqa o‘zakdan hosil bo‘ladi:

o‘zbekcha lotincha ruscha inglizcha nemischa fransuzcha

bir	unus	odin,a	one	eins	un,une
birinchi	primus	первый	first	erste	premier,ère
ikki	duo,ae	dva,dve	two	zwei	deux
ikkinchi	secundus	второй	second	zweite	second

b) uchdan o‘n yettigacha tartib sonlarni yasash uchun, sanoq sonlarning asosiga **-us, -a, -um** rod qo‘shimchalari qo‘shiladi.

o‘zbekcha	pim paqami	sanoq son	tartib son
uchinchi	III	tres	tertius,a,um
to‘rtinchi	IV	quattuor	quartus,a,um
beshinchi	V	quinque	quintus,a,um
oltinchi	VI	sex	sextus,a,um

c) o‘n sakkizdan yuqori sonlarda esa, sanoq sonlarning asosiga -
essim va -us, -a, -um rod qo‘shimchalari qo‘shiladi.

o‘zbekcha	pim paqami	sanoq son	tartib son
o‘nsakkiz	XVIII	duodeviginti	duodevicesīmus,a,um
o‘nto‘qqiz	XIX	undeviginti	undevicesīmus,a,um
yigirma	XX	viginti	vicesīmus,a,um

SANOQ VA TARTIB SONLARNING JADVALI

Rim raqami	arab raqami	sanoq sonlar	tartib sonlar
I	1	<i>unus,a,um</i>	<i>primus,a,um</i>
II	2	<i>duo,ae,o</i>	<i>secundus,alter</i>
III	3	<i>tres,tria</i>	<i>tertius</i>
IV	4	<i>quattuor</i>	<i>quartus</i>
V	5	<i>quinque</i>	<i>quintus</i>
VI	6	<i>sex</i>	<i>sextus</i>
VII	7	<i>septem</i>	<i>septimus</i>
VIII	8	<i>octo</i>	<i>octavus</i>
IX	9	<i>novem</i>	<i>nonus</i>
X	10	<i>decem</i>	<i>decīmus</i>
XI	11	<i>undēcim</i>	<i>undecīmus</i>
XII	12	<i>duodēcim</i>	<i>duodecīmus</i>
XIII	13	<i>tredēcim</i>	<i>tertius decīmus</i>
XIV	14	<i>quattuordēcim</i>	<i>quartus decīmus</i>
XV	15	<i>quindēcim</i>	<i>quintus decīmus</i>
XVI	16	<i>sedēcim</i>	<i>sextus decīmus</i>
XVII	17	<i>septendēcim</i>	<i>septimus decīmus</i>
XVIII	18	<i>duodeviginti</i>	<i>duodevicesīmus</i>
XIX	19	<i>undeviginti</i>	<i>undevicesīmus</i>
XX	20	<i>viginti</i>	<i>vicesīmus</i>
XXI	21	<i>viginti unus</i>	<i>vicesīmus</i>
XXII	22	<i>unus et viginti</i>	<i>unus et vicesīmus</i>
		<i>viginti duo</i>	<i>vicesīmus alter</i>
		<i>duo et viginti</i>	<i>alter et vicesīmus</i>
XXVIII	28	<i>duodetriginta</i>	<i>duodetricesīmus</i>
XXIX	29	<i>undetriginta</i>	<i>undetricesīmus</i>
XXX	30	<i>triginta</i>	<i>tricesīmus</i>

XL	40	<i>quadraginta</i>	<i>quadragesimus</i>
L	50	<i>quingenta</i>	<i>quingentesimus</i>
LX	60	<i>sexaginta</i>	<i>sexagesimus</i>
LXX	70	<i>septuaginta</i>	<i>septuagesimus</i>
LXXX	80	<i>octoginta</i>	<i>octogesimus</i>
XC	90	<i>nonaginta</i>	<i>nonagesimus</i>
C	100	<i>centum</i>	<i>centesimus</i>
CI	101	<i>centum et unus</i>	<i>centesimus et primus</i>
CC	200	<i>ducenti,ae,a</i>	<i>ducentesimus</i>
CCC	300	<i>trecenti,ae,</i>	<i>trecentesimus</i>
CD	400	<i>quadringenti,ae,a</i>	<i>quadringentesimus</i>
D	500	<i>quingenti,ae,a</i>	<i>quingentesimus</i>
DC	600	<i>sescenti,ae,a</i>	<i>sescentesimus</i>
DCC	700	<i>septingenti,ae,a</i>	<i>septingentesimus</i>
DCCC	800	<i>octingenti,ae,a</i>	<i>octingentesimus</i>
CM	900	<i>nongenti,ae,a</i>	<i>nongentesimus</i>
M	1000	<i>mille</i>	<i>millesimus</i>
MM	2000	<i>duo milia</i>	<i>bis millesimus</i>
MMM	3000	<i>tria milia</i>	<i>ter millesimus</i>
V	5000	<i>quinque</i>	<i>quinquelis millesimus</i>
X	10000	<i>decem milia</i>	<i>decies millesimus</i>
C	100000	<i>centum milia</i>	<i>centies millesimus</i>

TAQSIM VA DONA SONLAR

NUMERALIA DISTRIBUTIVA ET ADVERBIA

Bis dat quis mala dat.

Eringar ikki qatnar.

Lotin tilida taqsim sonlarni yasash uchun sonlarning asosiga – **n** suffikisi hamda **-i,-ae,-a** rod qo‘shimchalari (ko‘plikda) qo‘shiladi. Shu sababdan ham ular birinchi va ikkinchi turlanishdagi sifatlarning ko‘pligidagidek turlanadi. Dona sonlarni yasash uchun esa besh sanoq sonidan boshlab sonlarning asosiga **-ies** suffikisi qo‘shiladi. Masalan:

Rim raqami	taqsim sonlar	o‘zbekcha sonlar	dona sonlar	o‘zbekcha sonlar
I	singūli,ae,a	bittadan	semel	bir marta
II	bini,ae,a	ikkitadan	bis	ikki marta
III	terni,ae,a	uchtadan	ter	uch marta
IV	quaterni,ae,a	turttadan	quarter	turt marta
V	quini,ae,a	beshtadan	quinqies	besh marta
VI	seni,ae,a	oltitadan	sexies	olti marta
VII	septēni,ae,a	yettitadan	septies	yetti marta
VIII	octōni,ae,a	sakkiztadan	octies	sakkiz marta
IX	novēni,ae,a	to‘qqiztadan	novies	tukkiz marta
X	deni,ae,a	o‘ntadan	decies	un marta
XX	vicēni,ae,a	yigirmatadan	vicies	yigirma marta
C	centēni,ae,a	yuztadan	centies	yuz marta
CC	duēni,ae,a	ikki yuztadan	ducenties	ikki yuz marta
D	quingēni,ae,a	besh yuztadan	quingenties	besh yuz marta
M	singūli milia	mingtadan	milies	ming marta

SIFATDOSHLAR - PARTICIPIA

Dictum factum.

Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.

Lotin tilida ham xuddi o‘zbek tilidagidek sifatdoshlar asosan fe’llardan yasaladi. Fe’l ma’lum miqdorda fe’llik xususiyatini yo‘qotib sifatlar kabi aniqlanmish bilan rodnda, sonda va kelishiklarda moslashadi. Demak, bunda fe’llar shaxs-sonda tuslanmay, balki sifatlar kabi kelishiklarda turlanadilar. Shunday bo‘lishiga qaramasdan sifatdoshlar fe’llardek zamon, nisbat kabi grammatik kategoriyalarini o‘zida saqlab qoladi. Sifatdoshlar quyidagi zamon va nisbatlarga ega:

a) hozirgi zamon aniqlik nisbatidagi sifatdosh (participium praesentis activi);

b) o‘tgan zamon majhullik nisbatidagi sifatdosh (participium perfecti passivi);

v) kelasi zamon aniqlik nisbatidagi sifatdosh (participium futuri activi).

Participium praesentis activi fe'lining shaxssiz shakllaridan biri bo'lib, uni yasash uchun tuslanuvchi fe'ning infekt asosi olinadi, I,II tuslanishda **-ns**, III,IY tuslanishlarda **-ens** qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

- I *vocāre* - chaqirmoq *vocā-ns* - chaqirayotgan
 II *delēre* - buzmoq *delē-ns* - buzayotgan
 III *legēre* - o'qimoq *leg-ēns* - o'qiyotgan
 IY *finīre* - tugatmoq *finī-ens* - tugatayotgan

Hozirgi zamon sifatdoshi rod, kelishik va turlanish kategoriyalariga ega bo'lib, sifatlarning III turlanishidek turlanadi va qarartqich kelishigida -ntis qo'shimchasini oladi.

	Singularis		Pluralis	
	m	f	m	f
Nom.	<i>legēns</i>	<i>legēns</i>	<i>legentēs</i>	<i>legentēs</i>
Gen.	<i>legentīs</i>	<i>legentīs</i>	<i>legentium</i>	<i>legentium</i>
Dat.	<i>legentī</i>	<i>legentī</i>	<i>legentibūs</i>	<i>legentibūs</i>
Acc.	<i>legentem</i>	<i>legentem</i>	<i>legentēs</i>	<i>legentēs</i>
Abl.	<i>legentī</i>	<i>legentī</i>	<i>legentībūs</i>	<i>legentībūs</i>
Voc.	<i>legēns</i>	<i>legēns</i>	<i>legentēs</i>	<i>legentēs</i>

	Singularis	Pluralis
	n	n
Nom.	<i>legens</i>	<i>legentiā</i>
Gen.	<i>legentis</i>	<i>legentium</i>
Dat.	<i>legentī</i>	<i>legentībūs</i>
Acc.	<i>legens</i>	<i>legentiā</i>
Abl.	<i>legentī</i>	<i>legentībūs</i>
Voc.	<i>legēns</i>	<i>legentiā</i>

Participium perfecti passivi ni yasash uchun fe'llarning supin asosidagi **-um** qo'shimchasi olib tashlanadi va uning o'rniga **-us, -a, -um** rod qo'shimchalari qo'shiladi. Masalan:

- orno, ornavi, ornatum, ornāre* 1 *ornatus, a, um* – bezalgan
doceo, docui, doctum, docēre 2 *doctus, a, um* - o'rgatilgan
lego, legi, lectum, legēre 3 *lectus, a, um* - o'qilgan
facio, feci, factum, facēre 3 *factus, a, um* - bajarilgan
audio, audivi, auditum, audīre 4 *auditus, a, um* - eshutilgan

Participium futuri activi ni yasash uchun fe'llarning supin asosi bilan rod qo'shimchalari **-us, -a, -um** o'rtasiga **-ur-** suffiksi qo'shiladi. Masalan:

orno, ornavi, ornatum, ornāre 1 *ornaturus, a, um* - bezaydigan.
doceo, docui, doctum, docēre 2 *docturus, a, um* - o'rgatiladigan.
lego, legi, lectum, legēre 3 *lecturus, a, um* - o'qiladigan.
facio, feci, factum, facēre 3 *facturus, a, um* - bajariladigan.
audio, audivi, auditum, audīre 4 *auditurus, a, um* - eshitiladigan.

Sifatdoshlar kelishiklarda xuddi birinchi va ikkinchi turlanish sifatlaridek turlanadi. Masalan:

Singularis			Pluralis		
m	f	n	m	f	n
Nom. <i>ornatŭs</i>	<i>ornatā</i>	<i>ornatum</i>	<i>ornatī</i>	<i>ornatae</i>	<i>ornatā</i>
Gen. <i>ornatī</i>	<i>ornatae</i>	<i>ornatī</i>	<i>ornatōrum</i>	<i>ornatārum</i>	<i>ornatōrum</i>
Dat. <i>ornatō</i>	<i>ornatae</i>	<i>ornatō</i>	<i>ornatīs</i>	<i>ornatīs</i>	<i>ornatīs</i>
Acc. <i>ornatum</i>	<i>ornatam</i>	<i>ornatum</i>	<i>ornatōs</i>	<i>ornatās</i>	<i>ornatā</i>
Abl. <i>ornatō</i>	<i>ornatā</i>	<i>ornatō</i>	<i>ornatīs</i>	<i>ornatīs</i>	<i>ornatīs</i>
Voc. <i>ornatē</i>	<i>ornatā</i>	<i>ornatum</i>	<i>ornatī</i>	<i>ornatae</i>	<i>ornatā</i>

FE'L - VERBUM

Erudito aspera-optima est.
 Jiddiy tarbiya eng yaxshi tarbiyadir.

Lotin tilida fe'llar quyidagi grammatik kategoriyalarga ega:

a) shaxs kategoriyasi: birinchi shaxs (*persona prima*), ikkinchi shaxs (*persona secunda*), uchinchi shaxs (*persona tertia*);

b) son kategoriyasi: birlik (*numerus singularis*), ko'plik (*numerus pluralis*);

c) zamon kategoriyasi: lotin tilida fe'llar oltita zamon shakliga ega bo'lib, bular quyidagilar: hozirgi zamon (*praesens*), o'tgan zamon davom fe'li (*imperfectum*), I kelasi zamon (*futurum primum*), tugallangan o'tgan zamon (*perfectum*), uzoq o'tgan zamon (*plusquamperfectum*) va II kelasi zamon (*futurum secundum*);

d) mayl kategoriyasi: aniqlik mayli (*modus indicativus*), buyruq mayli (*modus imperativus*) va shart mayli (*modus coniunctivus*);

ye) nisbat kategoriyasi: aniqlik nisbati (activum) va majhullik nisbati (passivum);

f) tuslanish kategoriyasi (conjugatio). Lotin tilida to‘g‘ri tuslanuvchi fe‘llarning hammasi to‘rt xil tuslanish (guruh)ga bo‘linadi.

Fe‘llarning nechanchi tuslanishga tobe ekanligi shu fe‘llarning hozirgi zamon (infekt) asosidagi qo‘shimchaga qarab aniqlanadi.

Birinchi tuslanishga kiruvchi fe‘llarning infekt asosi **-ā** bilan tugallanadi: noaniq shakli *ornārer-* bezamoq, infekt asosi *ornā-beza-*.

Ikkinchi tuslanishga kiruvchi fe‘llarning infekt asosi **-ē** bilan tugallanadi: noaniq shakli *vidēre-*ko‘rmoq, infekt asosi *vidē-* ko‘r-.

Uchinchi tuslanishga kiruvchi fe‘llar o‘z asosiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) asosi tutashtiruvchi (tematik) qisqa **-ē** unlisi (bu unlidan oldin undosh yoki **-ū** kelishi mumkin) bilan tugallanuvchi fe‘llar; b) asosi qisqa **-ī** unlisi bilan tugallanuvchi fe‘llar.

Misollar:

a) noaniq shakli *legēre* - o‘qimoq, *statuēre* - o‘rnatmoq, infekt asosi *legē-*, *statuē-*.

b) noaniq shakli *capēre* - olmoq, infekt asosi *capī-*. Infekt asosidagi qisqa unli **-ī** r undoshidan oldin qisqa **-ē** ga aylanganligi sababli *capere* deb yoziladi.

To‘rtinchi tuslanishga kiruvchi fe‘llarning infekt asosi cho‘ziq **-ī** bilan tugallanadi: *audīre-*eshitmoq, infekt asosi *audī-*.

O‘zbek tilida fe‘llar lotin tilidagi kabi tuslanish guruhlarga bo‘linmaydi, chunki ularning asosi unli yoki undosh bilan tugallanishidan qat’iy nazar, noaniq shakli bir xil - **m o q** qo‘shimchasi bilan tugallanadi.

FE‘L ASOSLARI VA UNING ASOSIY SHAKLLARI

Lotin tilida fe‘llar to‘rtta asosiy shaklga ega: hozirgi zamon birinchi shaxs birlikdagi asosiy shakl (*orno* - men bezayapman), o‘tgan zamon birinchi shaxs birlikdagi asosiy shakl (*ornavi* - men bezadim), harakat nomini ifodalovchi asosiy shakl *ornatum* (bezak, bezash) va fe‘llarning noaniq shakllari (*ornāre-*bezamoq). Shu sababli lotin tili lug‘atlarida fe‘llar o‘zbek va boshqa tillardan farqli ravishda avval fe‘llarning hozirgi zamon birinchi shaxs

birlikdagi asosiy shakli, keyin o‘tgan zamon birinchi shaxs birlikdagi asosiy shakli, harakat nomi, fe’lning noaniq shakli va fe’l qaysi tuslanishga tegishli bo‘lsa o‘sha raqam yoziladi. Masalan:

laboro, laboravi, laboratum, laborāre 1 - ishlamoq

habeo, habui, habitum, habēre 2 - ega bo‘lmoq

fundo, fudi, fusum, fundere 3 - quymoq

munio, munivi, munitum, munire 4 - mustahkamlamoq

Fe’llarning bu to‘rt asosiy shakli shu fe’llarning uch asosini aniqlashga yordam beradi. Fe’llarning to‘rtinchi asosiy shaklidagi **-re** qo‘shimchasini olib tashlab infekt (infectum) asosi, ikkinchi asosiy shaklidagi **-i** qo‘shimchasini olib tashlab perfekt (perfectum) asosi va uchinchi asosiy shaklidagi **-um** qo‘shimchasini olib tashlab (supinum) supin asoslari aniqlanadi. Masalan:

I infekt.	II pefekt.	III supin.	IV
1. <i>laboro laborā-</i>	<i>laboravi laborav-</i>	<i>laboratum laborat-</i>	<i>-āre</i>
2. <i>habeo habē-</i>	<i>habui habu-</i>	<i>habitum habit-</i>	<i>-ēre</i>
3. <i>fundo fundē-</i>	<i>fudi fud-</i>	<i>fusum fus-</i>	<i>-ēre</i>
4. <i>munio munī-</i>	<i>munivi muniv-</i>	<i>munitum munit-</i>	<i>-īre</i>

Ushbu asoslar o‘z navbatida ma’lum fe’l zamonlari formasini yasash uchun qo‘llaniladi. Masalan: fe’lning infekt asosidan quyidagi zamon shakllari hosil bo‘ladi: a) aniqlik maylidagi hozirgi zamonning aniqlik va majhul nisbatlari (praesens indicativi activi et passivi), b) aniqlik maylidagi o‘tgan zamon davom fe’lining aniqlik va majhul nisbati shakllari (imperfectum indicativi activi et passivi), c) aniqlik maylidagi birinchi kelasi zamonning aniqlik va majhul nisbati shakllari (futurum I indicativi activi et passivi), d) buyruq mayli (imperativus praesentis) va shart maylining hozirgi va o‘tgan zamon davom fe’li shakllari (praesens et imperfectum coniunctivi activi et passivi). Fe’lning perfektum asosidan esa, tugallangan o‘tgan zamon aniqlik nisbati (perfectum activi), uzoq o‘tgan zamon aniqlik nisbati (plusquamperfectum activi), va II kelasi zamon aniqlik nisbatlari (futurum II) yasaladi. Fe’lning supin asosidan esa, tugallangan o‘tgan zamon majhullik nisbati (perfectum passivi), uzoq o‘tgan zamon majhullik nisbati (plusquamperfectum passivi), va II kelasi zamon (futurum II) aniqlik mayli majhul nisbati shakllari yasaladi.

**ANIQLIK MAYLI HOZIRGI ZAMONINING ANIQLIK
NISBATI
PRAESENS INDICATIVI ACTIVI**

Errare humanum est.
Xato qilish insonga xosdir.

Fe'llarning aniqlik maylidagi hozirgi zamon aniqlik nisbatini yasash uchun tuslanuvchi fe'lning infekti asosiga aniqlik nisbatining quyidagi shaxs-son qo'shimchalari qo'shiladi:

	Singularis	Pluralis
I shaxs	-ō(m)	-mūs
II shaxs	-s	-tīs
III shaxs	-t	-nt

Fe'llarning aniqlik maylidagi hozirgi zamon aniqlik nisbatida tuslanish jadvali.

	I	II	IIIa	IIIb	IY
infinitiv	pugnāre	delēre	mittēre	facēre	finīre
infekt as	pugnā-	delē-	mittē-	facī-	finī-

Singularis

	I	pugnō	deleō	mittō	faciō	finiō
II	pugnās	delēs	mittīs	facīs	finīs	
III	pugnat	delet	mittit	facit	finit	

Pluralis

I	pugnāmūs	delēmūs	mittīmūs	facīmūs	finīmūs	
II	pugnātīs	delētīs	mittītīs	facītīs	finītīs	
III	pugnānt	delent	mittunt	faciunt	finiunt	

Eslatmalar:

I tuslanishga kiruvchi fe'llarning asosi cho'ziq **-a** unli tovushi bilan tugallanganligi sababli I shaxs birlikda **-o** qo'shimchasi bilan qo'shilib ketadi. Chunki lotin tilida har qanday cho'ziq unli tovush

ikkinchi bir unlidan oldin kelsa qisqa talaffuz qilinadi yoki umuman talaffuzdan tushib qoladi.

2. III tuslanishning a) guruhiga kiruvchi fe'llarning asosidagi qisqa **-e** unlisi II,III shaxs birlik va I,II shaxs ko'plik sonlarida qisqa **-i** unlisiga, III shaxs ko'plikda esa qisqa **-u** unlisiga o'tadi.

3. III tuslanishning b) guruhiga kiruvchi fe'llar xuddi IV tuslanishdagi fe'llardek tuslanadi (faqat bunda asos qisqa **-i** bilan keladi).

4. IY tuslanish fe'llarida esa, III shaxs ko'plikda fe'lning asosi bilan shaxs-son qo'shimchasi o'rtasida birlashtiruvchi (tematik) **-u** unlisi yoziladi.

5. Lotin tilida fe'llardan oldin kishilik olmoshlari qo'llanilmaydi. O'zbek tilidagi kabi lotin tilida ham kishilik olmoshlari vazifasini shaxs (egalik) qo'shimchalari anglatib keladi.

Masalan: *pugno* - kurashyap-man, *pugnas* - kurashyap-san, *pugnat* - kurashyap-ti.

ESSE (emoq) yordamchi fe'lining hozirgi zamonda tuslanishi. Esse yordamchi fe'li ingliz, nemis, fransuz tillaridagi **sein, to be** va **être** yordamchi fe'llari kabi gapda ot yoki sifat bilan ifodalangan kesimni ega bilan bog'lovchi vosita sifatida, ya'ni yordamchi fe'l vazifasida ishlatiladi. Masalan: lot. (Ego) *sum discipulus*, nem. *ich bin Student*, ing. *I am student*, fr. *je suis étudiant*, o'zb. *men studentman*.

Shunday qilib xorijiy tillarda ot bilan ifodalangan kesimni yordamchi fe'l ega bilan bog'lab kelgan bo'lsa, o'zbek tilida shaxs-son qo'shimchasi **-man** bog'lab keladi. Esse yordamchi fe'li ba'zan mustaqil fe'l sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: *In terra est vita*. Yerdan hayot bor.

Singularis

lot.	ing.	nem.	fran.
I <i>sum</i>	I am	ich bin	je suis
II <i>ēs</i>	You are	du bist	tu es
III <i>ēst</i>	He is	er ist	il est

	Pluralis		
I sūmūs	we are	wir sind	nous sommes
II ěstīs	you are	ihr seid	vous êtes
III sunt	they are	sie sind	ils sont

BUYRUQ MAYLI - IMPERATIVUS

Fide, sed qui fides vide.
Sinalmagan otning sirtidan o'tma.

Lotin tilida ham xuddi o'zbek tilidagi kabi buyruq mayli faqat ikkinchi shaxs birlik va ko'plik songa qaratilgan bo'ladi.

Masalan: *legě!* o'qi! *legite!* o'qing! *laborā!* ishla! *laborate!* ishlang!

Ikkinchi shaxs birlikdagi buyruq maylining yasalishi ham xuddi o'zbek tilidagi kabi, fe'lining noaniq shakli qo'shimchasi -**moq** olib tashlanganidek, lotin tilida ham -**re** qo'shimchasi olib tashlanadi. Masalan:

pugnāre - kurashmoq, *pugnā!* kurash!

delēre - buzmoq, *delē!* buz!

mittēre - jo'natmoq, *mittē!* jo'nat!

capēre - olmoq, *capē!* ol!

finire - tugatmoq, *fini!* tugat!

Buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'plik shaklini yasash uchun, fe'llarning infekt asosiga I, 2 va 4 tuslanishdagi fe'llar uchun -**te**, uchinchi tuslanishdagi fe'llarga esa -**ite** qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan:

pugnāre pugnā! kurash! *pugnāte!* kurashing!

delēre delē! buz! *delēte!* buzing!

mittēre mittē! jo'nat! *mittēte!* jo'nating!

finire fini! tugat! *finite!* tugating!

Buyruq maylining bo'lishsiz (inkor) shaklini hosil qilish uchun tuslanuvchi fe'llarning noaniq shaklidan oldin taqiqlashni ifodalovchi **nolle** fe'lining ikkinchi shaxs birligida **noli** va ko'pligida **nolite** shakllari yoziladi. Masalan:

noli pugnāre! kurashma!

nolite pugnāre! kurashmang!

noli delēre! buzma!
nolite delēre! buzming!
noli mittēre! jo‘natma!
nolite mittēre! jo‘natming!
noli capēre! olma!
nolite capēre! olming!
noli finire! tugatma!
nolite finire! tugatming!

Eslatma: Uchinchi a) tuslanishdagi *dico* - gapirmoq, *duco* - olib bormoq va uchinchi b) tuslanishdagi *facio* - qilmoq fe'llarining ikkinchi shaxs birligidagi asosi oxirgi unli tovushsiz ishlatiladi. Masalan: *dic!* gapir! *duc!* olib bor! *fac!* qil!

ANIQLIK MAYLI HOZIRGI ZAMONINING MAJHULLIK NISBATI

PRAESENS INDICATIVI PASSIVI

Tempora mutantur et nos mutamur in illis.

Zamon o‘zgaroqda, u bilan birga biz ham o‘zgaroqdamiz.

Aniqlik mayli hozirgi zamonining majhullik nisbatini hosil qilish uchun tuslanuvchi fe'llarning infekt asosiga quyidagi majhullik nisbati shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shiladi:

	Singularis	Pluralis
I shaxs	-or (r)	-mur
II shaxs	-ris	-mini
III shaxs	-tur	-ntur

Aniqlik mayli hozirgi zamonining majhul nisbatida fe'llarning tuslanishi.

	Singularis				
	I	II	IIIa	IIIb	IV
	<i>pugnāre</i>	<i>delēre</i>	<i>mittēre</i>	<i>facēre</i>	<i>finīre</i>
I.	<i>pugnor</i>	<i>deleor</i>	<i>mittor</i>	<i>facior</i>	<i>finior</i>
II.	<i>pugnāris</i>	<i>delērīs</i>	<i>mittērīs</i>	<i>facērīs</i>	<i>finīrīs</i>
III.	<i>pugnātur</i>	<i>delētur</i>	<i>mittītur</i>	<i>facītur</i>	<i>finītur</i>

Pluralis

- I. *pugnāmur delēmur mittīmur faciūmur finīmur*
- II. *pugnāmīnī delēmīnī mittīmīnī faciēmīnī finīmīnī*
- III. *pugnantur delentur mittuntur faciuntur finiuntur*

ANIQLIK NISBATIDAGI GAP QURILMASINI MAJHULLIK NISBATIDAGI GAP QURILMASIGA AYLANTIRISH

Lotin tilida ham boshqa tillardagi kabi aniqlik nisbatidagi gap qurilmasini majhullik nisbatiga aylantirishda ma'lum o'xshashliklar ko'zga tashlanadi. Chunonchi, lotin tilidagi *Medicus aegrotum curat* jumlasida gapning egasi *medicus*, kesimi *curat* va vositasiz to'ldiruvchisi *aegrotum* bo'lib, fe'l kesim ega bilan shaxs va sonda moslashib aniqlik nisbatida qo'llanilgan. Ushbu jumla majhullik nisbatiga aylantirilganda vositasiz to'ldiruvchi *aegrotum* bosh kelishikda kelib ega o'rini, ega *medicus* esa chiqish kelishigida kelib vositasiz to'ldiruvchi o'rini (vositali to'ldiruvchi bo'lib) egallaydi. Kesim *curat* o'sha shaxs va sonni saqlab qolib, faqat majhullik nisbati qo'shimchasini oladi. Agar aniqlik nisbatidagi ega jonli predmetni anglatsa, majhullik nisbatidagi gap qurilmasiga o'tganda u o'zidan oldin "**a, ab yoki de**" predloglaridan birini olib Ablativus kelishigida keladi. Masalan: *Aegrotus a medico curatur*. **Bemor tabib tomonidan davolan yapti.** Ega jonsiz predmetni anglatsa, u Ablativus kelishigida kelib predlogsiz ishlatiladi. Masalan: *Concordia victoriam gignit*. **Kelishuv g'alabani yuzaga keltiradi** jumlasini majhullik nisbatiga aylantirganda quyidagicha bo'ladi: *Victoria concordia gignitur*. **G'alaba kelishuvda yuzaga keladi.** Bu misollardan ko'rinadiki, lotin tilida aniqlik nisbatidagi gap qurilmasini majhullik nisbatidagi gap qurilmasiga aylantirishda qanday grammatik hodisa yuz bergan bo'lsa, o'zbek tilida ham shunday holni ko'rishimiz mumkin. Gapimizning isboti uchun yuqoridagi birinchi misolimizni o'zbek tiliga ag'daramiz. *Medicus aegrotum curat*. **Tabib kasalni davolayapti.** *Aegrotus a medico curatur*. **Kasal tabib tomonidan davolanayapti.**

ANIQLIK MAYLI O'TGAN ZAMON DAVOM FE'LINING ANIQ VA MAJHUL NISBATLARI

IMPERFECTUM INDICATIVI ACTIVI ET PASSIVI

Litterarum radices amarae sunt, fructum dulcae.
Bilimning ildizi achchiq, mevasi shirindir.

O'tgan zamon fe'lining mazkur shakli ish-harakatninig tugallanmaganligini yoki uning takrorlanib turganligini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Bu zamoni hosil qilish uchun tuslanuvchi fe'lining infekt asosi va shaxs qo'shimchalari o'rtasiga I-II tuslanishlarda **-ba-**, III-IY tuslanishlarda esa **-eba-** suffikslari qo'shiladi.

Activum

I	II	IIIa	IIIb	IY
Singularis				
I. <i>pugnābam</i>	<i>delēbam</i>	<i>mittēbam</i>	<i>faciēbam</i>	<i>finiēbam</i>
II. <i>pugnābas</i>	<i>delēbas</i>	<i>mittēbas</i>	<i>faciēbas</i>	<i>finiēbas</i>
III. <i>pugnābat</i>	<i>delēbat</i>	<i>mittēbat</i>	<i>faciēbat</i>	<i>finiēbat</i>

Pluralis

I. <i>pugnabāmus</i>	<i>delebāmus</i>	<i>mittebāmus</i>	<i>faciebāmus</i>	<i>finiebāmus</i>
II. <i>pugnabātis</i>	<i>delebātis</i>	<i>mittebātis</i>	<i>faciebātis</i>	<i>finiebātis</i>
III. <i>pugnabant</i>	<i>delebant</i>	<i>mittebant</i>	<i>faciebant</i>	<i>finiebant</i>

Passivum

I	II	IIIa	IIIb	IY
Singularis				
I. <i>pugnābar</i>	<i>delēbar</i>	<i>mittēbar</i>	<i>faciēbar</i>	<i>finiēbar</i>
II. <i>pugnabāris</i>	<i>delebāris</i>	<i>mittebāris</i>	<i>faciebāris</i>	<i>finiebāris</i>
III. <i>pugnabātur</i>	<i>delebātur</i>	<i>mittebātur</i>	<i>faciebātur</i>	<i>finiebātur</i>

Pluralis

I	<i>pugnabāmur</i>	<i>delebāmur</i>	<i>mittebāmur</i>	<i>faciebāmur</i>
II	<i>pugnabamīnī</i>	<i>delebamīnī</i>	<i>mittebamīnī</i>	<i>faciebamīnī</i>
III.	<i>pugnabantur</i>	<i>delebantur</i>	<i>mittebantur</i>	<i>faciebantur</i>

- I. finiebāmur
- II. finiebamīnī
- III. finiebantur

ESSE yordamchi fe’li imperfectumda quyidagicha tuslanadi.

	Singularis	Pluralis
I.	ēram	ērāmūs
II.	ērās	erātīs
III.	ērat	ērant

ANIQLIK MAYLI BIRINCHI KELASI

ZAMONINING ANIQ VA MAJHUL NISBATLARI

FUTURUM I INDICATIVI ACTIVI ET PASSIVI

Tantum sciemus, quantum memoria tenebimus.
Biz qanchalik bilsak, shuncha esda saqlaymiz.

Lotin tilidagi I kelasi zamon ma’no jihatidan o‘zbek tilidagi hozirgi kelasi zamonga to‘g‘ri keladi. Uni hosil qilish uchun fe’ning infekt asosi va shaxs qo‘shimchalari o‘rtasiga I-II tuslanish fe’llarida **-b-** suffiksi, III va IY tuslanishlarda esa, I shaxs birlikda **-a-**, boshqa shaxslarda **-e-** suffiksi qo‘shiladi.

A c t i v u m

	I	II	IIIa	IIIb	IV
	Singularis				
<i>I. pugnābo</i>	<i>delēbo</i>	<i>mittam</i>	<i>faciam</i>	<i>finiam</i>	
<i>II. pugnābis</i>	<i>delēbis</i>	<i>mittes</i>	<i>facies</i>	<i>finies</i>	
<i>III. pugnābit</i>	<i>delēbit</i>	<i>mittet</i>	<i>faciet</i>	<i>finiet</i>	
	Pluralis				
<i>I. pugnabīmus</i>	<i>delebīmus</i>	<i>mittēmus</i>	<i>faciēmus</i>	<i>finiēmus</i>	
<i>II. pugnabītis</i>	<i>delebītis</i>	<i>mittētis</i>	<i>faciētis</i>	<i>finiētis</i>	
<i>III. pugnabunt</i>	<i>delebunt</i>	<i>mittent</i>	<i>facient</i>	<i>finien</i>	

P a s s i v u m

I II IIIa IIIb IY

Singularis

- I. *pugnābor delēbor mittar faciar finiar*
II. *pugnāberis delēberis mittēris faciēris finiēris*
III. *pugnābitur delēbitur mittitur faciētur finiētur*

Pluralis

- I. *pugnabīmur delebīmur mittēmur faciēmur finiēmur*
II. *pugnabīmini delebīmini mittēmini faciēmini finimini*
III. *pugnabuntur delebuntur mittentur facientur finientur*

ESSE yordamchi fe'lining I-kelasi zamonda tuslanishi.

Singularis

Pluralis

- I. *ero erīmus*
II. *eris eritis*
III. *erit erunt*

PERFEKT SISTEMASIGA KIRUVCHI ZAMONLAR VA PERFEKT ASOSI HAQIDA MA'LUMOT

Lupus pilum mutat, non mentem.

Bo'rining terisi o'zgarsada, tabiati o'zgarmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan zamonlar infekt asosdan yasalgan bo'lib, ish-harakatining tugallanmaganligini ifodalasa, perfekt asosdan yasalgan zamon shakllari ish-harakatning tugallanganligini ifodalaydi. Bu asosdan aniqlik maylining quyidagi zamon shakllari - tugallangan o'tgan zamon (perfectum activi), uzoq o'tgan zamon (plusquamperfectum activi) va kelasi ikkinchi zamon (futurum II activi) shakllarining aniq nisbatlari hamda shart maylining tugallangan o'tgan zamon va uzoq o'tgan zamon shakllarining aniqlik nisbatlari yasaladi.

Fe'llarning perfekt asosi hamma fe'llarda ham bir xil hosil bo'lmaganligi sababli quyidagi qoidalarga e'tibor qilish kerak; a) birinchi va to'rtinchi tuslanishga kiruvchi ko'pchilik fe'llarning infekt asosiga -v- suffiksi qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

Masalan: *ornāre* - bezamoq *ornav-*, *amāre* – sevmoq *amav-*, *audīre* - eshitmoq *audiv-*, *dormīre* - uxlamoq *dormiv-*.

b) ikkinchi tuslanishga kiruvchi fe'llarning asosiga **-u**-suffiksi qo'shiladi. *docēre* - o'rgatmoq *doce-u* = *docu*, *monēre* - esga solmoq *mone-u* = *monu*. Xuddi boshqa tillardagi kabi lotin tili fonetikasidagi qonuniyatlarga asosan unli tovushdan oldin kelgan cho'ziq unli tovush qisqa talaffuz qilinadi yoki tushib qoladi.

c) uchinchi tuslanishga kiruvchi fe'llarning infekt asosiga **-s**-suffiksi qo'shiladi. Shu sababli **s** dan oldin kelgan ba'zi fe'llarning asosidagi undosh tovushlar fonetik o'zgarishlarga uchraydi. Masalan:

1) til oldi **g** va **c** tovushlari **s** bilan qo'shib yozuvda **x** bilan ifodalanadi. *dicēre*- gapirmoq *dic-s* = *dix*, *legēre*- o'qimoq *leg-s* = *lex*.

2) til oldi **g** va lablashgan **b** jarangli undosh tovushlar **t** hamda **s** undosh tovushlaridan oldin kelsa, portlovchi **c** va **p** tovushlariga aylanadi. *scribēre* - yozmoq *scrib-s* = *scrips*, *regēre* -boshqarmoq *reg-t* = *rect*.

3) til oldi **d** va **t** tovushlari **s** dan oldin assimilyatsiyaga uchraydi, ya'ni **s** ta'sirida **d**, **t** tovushlari **s** ga aylanadi. *cedēre*-chekinmoq *ced-s* = *cess-*, *mittēre* - yubormoq *mitt-s* = *misss* = *mis*-Cho'ziq unli dan keyin kelgan bir xil undosh tovushlardan faqat biri qoladi.

4) ba'zi fe'llarning perfekt asosi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan emas, balki asosidagi qisqa unli tovushni cho'ziq unliga aylantirish yo'li bilan hosil qilinadi.

Masalan: *vidēre* – ko'rmoq *vid-*, *movēre* - hapakatga keltirmoq **mov-**, *legēre* - o'qimoq *leg-*, *venīre*-kelmoq *ven-*. Ba'zan qisqa **a** unli tovushning cho'ziq unliga aylanishi, shu **a** tovushining cho'ziq **e** ga aylanishiga sabab bo'ladi. Masalan: *agēre* - quvmoq, *ag=egi*, *capēre* - olmoq *cap=cepi*, *facēre* - bajarmoq *fac=feci*, *jacēre*- tashlamoq *jac=jeci*.

d) ba'zi fe'llarda birinchi bo'g'inning takrorlanishi asosida ham perfekt asosi yasaladi.

Masalan: *dāre* - bermoq *da* = *dedi*, *mordēre* - tishlamoq *morde* = *momordi*.

e) ba'zi fe'llarda perfekt asosi infekt asosdan farq qilmaydi. Masalan: *statuere* - o'rnatmoq, infekt asosi *statu-* perfekt asosi ham xuddi shunday bo'ladi. Demak, fe'llarning perfekt asosini yasashda ma'lum qonuniyatlar mavjud bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga

ega ekan. Shuning uchun ham lotin tili lugʻatlarida fe'llar barcha asosiy shakllarda beriladi.

Masalan: *pugno, pugnavi, pugnatum, pugnāre* 1 - kurashmoq, *deleo, delevi, deletum, delēre* 2 - buzmoq, *mitto, misi, missum, mittēre* 3 -joʻnatmoq, *facio, feci, factum, facēre* 3 - bajarmoq, *finio, finivi, finitum, finīre* 4-tugatmoq. *habeo, habui, habitum, habēre* 2 - ega boʻlmoq.

ANIQLIK MAYLI TUGALLANGAN OʻTGAN ZAMONINING ANIQ NISBATI

PERFECTUM INDICATIVI ACTIVI

Homini mendaci, etiam si vera dicit nemo credit.
Yolgʻonchi rost gapirsa ham hech kim ishonmaydi.

Fe'llarni ushbu zamon shaklida tuslash uchun tuslanuvchi fe'llarning perfekt asosi olinadi va quyidagi shaxs-son qoʻshimchalari qoʻshiladi.

	Singularis		Pluralis
	I shaxs	-i	-īmus
II shaxs	-isti		-istis
III shaxs	-it		-ērunt

Singularis					
	I	II	IIIa	IIIb	IY
I	<i>pugnāvi</i>	<i>habui</i>	<i>misi</i>	<i>feci</i>	<i>finivi</i>
II	<i>pugnāvisti</i>	<i>habuisti</i>	<i>misisti</i>	<i>fecisti</i>	<i>finivisti</i>
III	<i>pugnāvīt</i>	<i>habuit</i>	<i>misit</i>	<i>fecit</i>	<i>finivīt</i>

Pluralis					
I	<i>pugnāvīmus</i>	<i>habuīmus</i>	<i>misīmus</i>	<i>fecīmus</i>	<i>finivīmus</i>
II	<i>pugnāvīstis</i>	<i>habuīstis</i>	<i>misīstis</i>	<i>fecīstis</i>	<i>finivīstis</i>
III	<i>pugnāvērunt</i>	<i>habuērunt</i>	<i>misērunt</i>	<i>fecērunt</i>	<i>finivērunt</i>

Yordamchi ESSE fe'lining perfectum indicativi activi da tuslanishi.

	Singularis	Pluralis
I shaxs	<i>fui</i>	<i>fuimus</i>
II shaxs	<i>fuisti</i>	<i>fuistis</i>
III shaxs	<i>fuit</i>	<i>fuērunt</i>

ANIQLIK MAYLI UZOQ O‘TGAN ZAMONINING ANIQLIK NISBATI

PLUSQUAMPERFECTUM INDICATIVI ACTIVI

Plusquamperfectum zamoni o‘tgan zamonda bo‘lib o‘tgan, tugallangan, ikkinchi bir voqea-hodisadan oldin sodir bo‘lgan ish-harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu zamoni hosil qilish uchun tuslanuvchi fe‘llarning perfekt asosi va shaxs-son qo‘shimchalari o‘rtasiga -era- suffiksi qo‘shiladi.

Singularis

	I	II	IIIa	IIIb	IY
I	<i>pugnavēram</i>	<i>delevēram</i>	<i>misēram</i>	<i>fecēram</i>	<i>finivēram</i>
II	<i>pugnavēras</i>	<i>delevēras</i>	<i>misēras</i>	<i>fecēras</i>	<i>finivēras</i>
III	<i>pugnavērat</i>	<i>delevērat</i>	<i>misērat</i>	<i>fecērat</i>	<i>finivērat</i>

Pluralis

I	<i>pugnaverāmus</i>	<i>deleverāmus</i>	<i>miserāmus</i>	<i>fecerāmus</i>	<i>finiverāmus</i>
II	<i>pugnaverātis</i>	<i>deleverātis</i>	<i>miserātis</i>	<i>fecerātis</i>	<i>finiverātis</i>
III	<i>pugnaverant</i>	<i>delevērant</i>	<i>misērant</i>	<i>fecērant</i>	<i>finivērant</i>

v) D a t i v u s f i n a l i s - maqsad anglashilib, fe'l ifodalagan harakat ko'rsatiladi. Masalan: praesidio venire (relinquere) "nega, nima maqsadda kelmoq yoki qoldirmoq, himoyaga kelmoq(qoldirmoq)"; auxilio mittere "yordamga yubormoq", bono esse "yaxshilikka xizmat qilmoq".

g) D a t i v u s d u p l e x - qo'shaloq jo'nalish kelishigi. Mihi praesidio venire "menga yordamga (yordam berish uchun) keldi". Dat. duplex, xususan, esse yordamchi fe'li bilan qo'llanganda, "nimaga kerak bo'lmoq", "nima bo'lib xizmat qilmoq" ma'nosini anglatadi. Masalan: mihi ornamento est - "men uchun bezak (taqinchoq)dir, menga bezak vazifasidadir". Juvem equus dono datus est "yigitga mukofot sifatida ot berildi".

d) *D a t i v u s a u c t o r i s* - joʻnalish kelishigining bu shakli baʻzan majhullik nisbatidagi gaplarda qoʻllanilib, gapning kesimiga nisbatan vositali toʻldiruvchi boʻlib keladi. Bu gap oʻzbek tiliga tarjima qilinganda, anʼanaga binoan, chiqish kelishigi qoʻshimchasini oladi. Masalan: *Mihi captum consilium jam diu est.* "Bu qaror men tomonimdan allaqachon qabul qilindi". Baʻzan lotin tilidagi bunday gaplar oʻzbek tiliga aynan agʻdarilishi ayrim gʻalizliklarni keltirib chiqarganligi sababli aniqlik nisbatida tarjima qilish tavsiya qilinadi. Jumladan: *Mihi captum consilium jam diu est.* "Men bu qarorni allaqachon qabul qilganman".

A c c u s a t i v u s kelishigi oʻzbek tilidagi tushum kelishigiga mos maʼnoni anglatib, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: *Ego librum lego* "Men kitob(ni) oʻqiyapman" degan gapda kitob tushum kelishigida kelib, feʼl bilan ifodalangan kesimga nisbatan vositasiz toʻldiruvchi boʻlyapti. Shu bilan bir qatorda, lotin tilidagi bu kelishik oʻzbek tiliga tarjima qilinganda, aynan tushum kelishigiga emas, balki boshqa kelishiklarga ham toʻgʻri kelib, gapda boshqa sintaktik funksiyalar (aniqllovchi, kesim va hol) ni bajarishlari ham mumkin. Masalan: *homines caecos reddit cupiditas* "Ochkoʻzlik odamlarni koʻr qiladi". Bu gapdagi **homines** bilan **caecos** predlogsiz tushum kelishigida kelib, bir butunlikni anglatlsa, oʻzbek tilida "**k oʻ r**" soʻzi **q i l m o q** "**reddo**" feʼli bilan kelib, qoʻshma feʼlga aylangan.

Lotin tilida shunday hollar boʻlishi mumkinki, shaxs va predmetni anglatuvchi soʻzlar birgalikda tushum kelishigida kelib, feʼl bilan ifodalangan kesimga vositasiz toʻldiruvchi boʻlsa, oʻzbek tiliga agʻdarilganda biri tushum kelishigi qoʻshimchasini olib kesimga vositasiz toʻldiruvchi, ikkinchisi esa joʻnalish kelishigida kelib toʻldiruvchiga nisbatan vositali toʻldiruvchi boʻladi. Tushum kelishigida predlogsiz bogʻlangan bunday soʻz birikmalari lotin tilida *Accusativus duplex* (qoʻshaloq tushum kelishigi) deb ataladi. Masalan: *Ego doceo te litteras* "Men senga xat-savodni oʻrgatyapman".

Accusativus predlogsiz kelib, oʻrin holi vazifasini bajaradi va **qayoqqa?** savoliga javob beradi. Masalan: *Romam redeo* "Rimga qaytyapman". *Domum venio* "Uyga kelyapman".

Accusativus ma'lum maydon bo'ylab, masofani ko'rsatish bilan birga vaqt-zamon mobaynida davom etishini ham anglatadi. Bulardan birinchisi Accusativus extensionis (masofa) bo'lib, quyidagi misollarda ko'rish mumkin: Milia passum viginti procedere. "Yigirma mil yo'l bosmoq". Murus decem pedes altus. "Balandligi o'n futli devor". Hasta sex pedes longa. "Olti fut uzunlikdagi nayza". Fossa quinos pedes altae ducebantur. "Besh fut chuqurlikda o'ra qazildi". Ikkinchisi esa Acc.temporis deyiladi va quyidagi misollarda izohlanishi mumkin: ducentos annos ikki yuz yil mobaynida; (per) multos annos obsidere ko'plab yillar davomida qamal qilmoq; (per) unum diem legere bir kun bo'yi (davomida) o'qimoq.

Accusativus kelishigi his-hayajonni anglatuvchi undov gaplarda ham qo'llanilishi mumkin va Accusativus exclamationis deb ataladi. Masalan: o, te miseram! O, sen qanchalik baxtsizsan!; O, te felicem! O, sen qanday baxtlisan! O, praeclarum nomen imperatoris Romani! O, sharaflı Rim qo'mondoninigi nomi!

Ablativus - qadimgi lotin tilidagi chiqish nuqtasini ko'rsatuvchi ablativus, harakat vositasini ifodalovchi instrumentalis va harakatning boshlanish joyini ifodalovchi locativus kelishiklarini o'zida mujassamlashtirgan kelishik bo'lib, nutqdagi o'rniga qarab harakat vositasini, o'rin, payt va sabab hollarini ifodalashi mumkin. Ablativning bunday muhim sintaktik vazifalarini hisobga olib, ularni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

I. Ablativus chiqish kelishigi ma'nosi quyidagi ko'rinishlarda uchrashi mumkin: a) Abl. separationis- uzoqlashish, chiqish ma'nolarini ifodalaydi. Agar chiqish nuqtasi jonli predmetdan boshlansa, ablativ **a**, **ab**, **abs** predloglari bilan keladi. Masalan: inimici a Caesare fugunt dushmanlar Sezardan qochishdilar. Agar chiqish nuqtasi predmetdan boshlansa, Abl. predlogsiz yoki **a** (**ab**, **abs**), **de**, **ex** (**e**) predloglari bilan ham qo'llanilishi mumkin. Bulardan eng xarakterlisi predlogsiz qo'llanilishi sanaladi. Masalan: movere loco - joyidan siljitmoq, educere castris -lagerdan chiqarmoq, Aristides patria expulsus est – Aristid vatanidan haydab chiqarilgan edi. Legati Roma missi sunt. Elchilar Rimdan yuborilgan edi.

b) Abl. instrumenti harakat quoli (vositasi) anglashilib, o'zida hol (abl.modi), sabab (abl. causae), daraja (abl.limitationis) ma'nosini mujassamlashtiradi. Masalan: vulnerare sagitta (gladio) - kamon o'qi (qilich) bilan yaralamoq, nuntiare litteris - xat orqali ma'lum qilmoq.
v) Abl. modi fe'llar bilan kelib, ish-harakatning bajarilish usuli anglashiladi va **qanday? qanday qilib?** savollariga javob beradi. Masalan: Omnibus viribus resistere - butun kuchi bilan qarshilik qilmoq, magna cum gloria cadere - ulug' sharaf bilan halok bo'lmoq.

g) Abl. causae shaxsning biror ish-harakatni yuzaga kelishiga asos bo'lgan sabab tufayli namoyon bo'ladigan holatini ifodalaydi. Masalan: clamare ira - jahldan (jahl bilan) qichqirmoq, abesse morbo - kasalligi sababli qatnasha olmaslik, superbus victoria - g'alabadan mag'rur, mortuus vulneribus - jarohatdan o'lgan.

d) Abl.limitationis fe'l, ot yoki sifat anglatgan harakatning holat va belgisini aniqlaydi va belgilaydi. Masalan: Doctrina superare - olimlik (bilimdonlik)da ustun bo'lmoq, eloquentia clarus - notiqlikda mashhur, corpore validus, mente infirmus - jisman sog'lom, aqlan zaif, genere Romanus, moribus Graecus - zotiga ko'ra rimlik, odatiga ko'ra grek.

II. Ablativus o'rin-payt kelishig ma'nosida.

Qadimgi lotin tilidagi o'rin kelishigi (locativus) asosan, ikki kelishik abl. loci hamda abl. temporis vazifalarida qo'llanilgan. a) Abl.loci qadimgi o'rin-payt kelishigi ma'nosini o'zida saqlab, fe'llar bilan kelganda o'rin holi vazifasini bajaradi va **qayerda?** savoliga javob beradi. Predlogsiz kelgan Ablativus loci quyidagi hollarda qo'llaniladi:

a) locus so'zi aniqlovchi bilan keladi. Masalan: loco idoneo pugnare - qulay joyda kurashmoq, locis novis vivere - yangi yurtlarda yashamoq.

b) totus aniqlovchisi bilan. Masalan: Carmina Ovidii tota Italia leguntur. Ovidiyning she'rlari butun Italiyada o'qilyapti.

d) terra marique "ham quruqlikda ham suvda".

e) Shahar nomlarini ifodalovchi III turlanishga kiruvchi otlar Abl. loci da kelib, **qayerda?** so'rog'iga javob beradi. Masalan: Carthagine - Karfagenda, Lacedaemone - Lakedoniya (Sparta) da, Athenis - Afinada.

f) Abl. temporis payt kelishigi sanalib, fe'llar bilan kelganda ish-harakatning bajarilish davri, muddati anglashiladi va **qachon? qancha vaqt davomida?** so'roqlarigiga javob beradi. Bunda Abl. predlogsiz yoki **in** predlogi bilan kelishi mumkin. Tempus vaqt, payt, annus - yil, ver- bahor, hiems - qish, nox - kechasi, lux - tong kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zlar Ablativus kelishigida predlogsiz qo'llaniladi. Masalan: eo tempore vivere - o'sha davrda yashamoq; extremo anno vincere - yil oxirida yutib chiqmoq; prima luce excedere - tongda yo'lga chiqmoq; hieme laborare - qishda ishlamoq; hora quarta advenire - bir soatdayoq yetib bormoq. In predlogi bilan ba'zi bir otlargina qo'llanishlari mumkin, jumladan: in bello - urushda; in pace - tinchlik davrida; in pueris - bolalikda; in senectute - keksalikda. Abl. temporis ish-harakatining qancha vaqt mobaynida bajarilishini ko'rsatish uchun qo'llanilsa, predlog ishlatilmaydi. Masalan: uno die struere - bir kunda qurmoq; multis annis non venire - ko'p yillar davomida kelmaslik.

g) Abl. comparationis da qiyoslash, chog'ishtirish anglashiladi. Sifat va ravish darajalarida esa narsa, buyum va harakatni qiyoslashda qo'llaniladi. Masalan: patria mihi vita mea est carior - vatanim jonimdan aziz; vilis est argentum auro - kumush oltindan arzonroq; nullus lacus est domestica sede jucundior - o'z uyingdan ko'ra bermalolroq joy yo'qdir; candidior nive - qordan oq.

III. Ablativus qurol, vosita anglatuvchi kelishik sifatida.

Bu holda abl. kelishigi majhul nisbatdagi gaplarda qo'llanilib, nima vositasida (yordamida) harakatning bajarilishi anglashiladi va **nima bilan? nima yordamida?** savoliga javob beradi. Masalan: tauri cornibus, apri dentibus se defendent - ho'kizlar shoxlari, to'ng'izlar tishlari bilan o'zlarini himoya qiladilar.

Abl. qualitatis sifat anglashilib, aniqlovchi bilan qo'llanganda, shaxs yoki predmetga xos belgi ko'rsatiladi. Masalan: Caesar excelsa statura fuit. - Sezar baland bo'lyi bo'lgan edi.

Abl. pretii esa **qanday bahoda? qancha?** so'roqlariga javob berib, shaxs yoki predmetning qadri, qiymati anglashilgan. Masalan: magno pretio vendunt - yuqori bahoda (qimmat) sotyaptilar; nocet empta dolore voluptas azob-uqubat bilan erishilgan rohat yomondir; Eriphilija auro vitam viri vendit. - Eriphilia erining hayotini oltinga pullayotir.

FE'L SINTAKSISI

INFINITIVLARNING GAPDA QO'LLANILISHI

Dum ferrum caudet, cudere quisque deat.
Temirni qizig'ida bos.

Lotin tilida fe'llarning infinitiv shakllari gapda xuddi ot va boshqa mustaqil so'z turkumlaridek ega, kesim va to'ldiruvchi kabi sintaktik vazifalarni bajaradi. Masalan: 1) Errare humanum est - x a t o q i l i s h i n s o n g a x o s d i r. Bu gapda fe'lning infinitiv shakli **errare** gapning kesimi **humanum est** ga nisbatan ega bo'lib kelgan. Gapning asosiy kesimi sifat **humanum** bilan ifodalangan. 2) Vivere est cogitare - y a s h a s h f i k r l a s h d i r. Fe'lning infinitiv shakli **cogitare** fe'l bilan ifodalangan egaga nisbatan kesim bo'lib kelgan. 3) Grammatica docet, recte legere, scribere, dicere. - G r a m m a t i k a t o' g' r i o' q i s h n i, y o z i s h n i v a g a p i r i s h n i o' r g a t a d i. Bu misoldagi **legere**, **scribere** va **dicere** kabi fe'llarning infinitiv shakllari asosiy kesim docet ga vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan. 4) Bulardan tashqari fe'llarning infinitiv shakllari harakat nomi sifatida gapda predloglar bilan qo'llanilib, aniqlovchi bo'lishi ham mumkin. Masalan: Multum interest interdare et accipere. - O l m o q v a b e r m o q n i n g k a t t a f a r q i b o r.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, lotin tilidagi fe'llarning infinitiv shakllari o'zbek tiliga **-sh**, **-ish** qo'shimchalari bilan yasaluvchi harakat nomlari shaklda tarjima qilinib, o'zbek tilida qanday sintaktik vazifalarni bajarsa, lotin tilida ham shu kabi sintaktik vazifalarni bajarar ekan.

ACCUSATIVUS CUM INFINITIVO

Legem brevem esse oportet.
Qonun ixcham bo'lishi shart.

Lotin tilida fe'llarning infinitiv shakllaridan iborat bo'lgan oborotlar sodda gap tarkibida juda keng qo'llaniladi. Shulardan biri Accusativus cum infinitivo oborotidir. Bu ot yoki olmoshning tushum kelishigidagi va fe'llarning infinitiv shakllaridan iborat

bo'lgan oborot bo'lib, tushum kelishigida kelgan ot yoki olmosh fe'ning infinitiv shakliga nisbatan mantiqiy ega, infinitiv esa tushum kelishigida kelgan ot yoki olmoshga nisbatan mantiqiy kesim bo'lib sodda gap tarkibida keladi va sodda gapning asosiy kesimiga nisbatan murakkab to'ldiruvchi bo'ladi. Masalan: Video Dildoram legere. Dildoraning kitob(ni) o'qiyotganini ko'raya pman. Bu gapda **Dildoram legere** asosiy kesim **video** ga nisbatan murakkab to'ldiruvchi bo'lib, uni to'ldirib, izohlab kelyapti.

Agar Accusativus cum infinitivo oborotidagi mantiqiy kesim sifat-dosh bilan ifodalangan bo'lsa, mantiqiy ega bilan moslashib, tushum kelishigida keladi. Masalan: Mirkarim Osim in libro suo "Tragoedia veterium patirum nostrorum" scribebat Maracandam ab Alexandro Magno deletam esse Mirkarim Osim o'zi-ni-g "Ajdodlarimiz fojiasi" degan kitobida Maroqanda Buyuk Aleksandr tomonidan buzib tashlandi deb yozgan edi.


Sodda gap tarkibidagi oborotning mantiqiy kesimi ifodalayotgan ish-harakat asosiy kesim ifodalayotgan ish-harakatning zamoni bilan moslashadi. Ya'ni asosiy kesim ifodalayotgan ish-harakatning zamoni bilan bir paytda, nisbatan oldin yoki kelgusida sodir bo'lishiga qarab moslashadi. Masalan: Lucretius dicit (hozirgi zamon) Epicurum animos hominum maximus erroribus liberavisse (o'tgan zamon aniqlik nisbatidagi infinitiv). Epikurinson aqlini chalg'itayotgan yovuzlikdan ozod qildi, dedi Lukretsiy. Menelaus cognavi (tugallangan o'tgan zamon) Helenam a Paride raptum esse (o'tgan zamon majhullik nisbatidagi infinitiv).

Yelena Paris tomonidan o'g'irlanganini Menelay bildi. Dareus, rex Persarum, sperabat (o'tgan zamon davom fe'li) Graecos facile victum iri (kelasi zamon aniqlik nisbatidagi infinitiv) Eronshohi Dorogreklaroson-likcha yengiladi deb o'ylagan edi.

Ba'zan oborot tarkibidagi mantiqiy kesimning vositasiz to'ldiruvchisi ham bo'lishi mumkin. Masalan: Video Dilshodam librum legere Dilshodaning kitob(ni) o'qiyotganini ko'raya pman.

Umuman, bu sodda gapning tarkibida kelgan **Dilshodam**

librum legere oboroti bir butunlikni tashkil qilib, asosiy kesim **video ga** nisbatan murakkab to'ldiruvchi bo'lib kelgan va shu bilan bir qatorda oborotning mantiqiy kesimi **legere** o'zining egasiga (Dilshodam) hamda to'ldiruvchisiga (librum) ham egadir.



Accusativus cum infinitivo oboroti asosan quyidagi ma'nolarni anglatuvchi fe'llar bilan ishlatiladi:

a) gapirmoq, tasdiqlamoq (verba dicendi): dico - g a p i r m o q, narro - h i k o y a q i l m o q, respondeo - j a v o b b e r m o q, scribo - y o z m o q, trado - x a b a r b e r m o q, ajo - t a s d i q l a m o q, nego - i n k o r q i l m o q.

b) o'ylamoq, deb hisoblamoq, his qilmoq (verba sentiendi): puto - o' y l a m o q, censeo, arbitror - f a r a z q i l m o q, credo - i s h o n m o q, spero - u m i d q i l m o q, scio - b i l m o q, sentio - h i s q i l m o q, video - k o' r m o q, audio - e s h i t m o q.

d) xohlamoq, buyruq bermoq, man qilmoq (verba voluntatis): volo - x o h l a m o q, nolo - m a n q i l m o q, malo - d e b h i s o b l a m o q, cupio - x o h l a m o q, judio - b u y r u q b e r m o q.

e) xursand bo'lmoq, xafa bo'lmoq (verba affectuum}: gaudeo - x u r s a n d b o' l m o q, doleo - x a f a b o' l m o q. Bulardan tashqari Accusativus cum infinitivo aboroti constat, notum est ma'lum, apparet tu sh un ar li, interest m u h i m, necessest z a r u r kabi egasiz gaplar bilan ham ishlatiladi. Masalan: Alexander Magnus, rex Macedoniarum sperabat Maracandas facile victum ire Buyuk Aleksandr Maroqanda osonlikcha yengiladi deb umid qilgan edi. Audiebam te venisse Seni keldi deb eshitdim, Sening kelganingni eshitdim. Dildora credit amicum librum legisse Dildora dugonasining kitob o'qiganligiga ishongan edi. Antiqui putabant Martem bella regere. Qadimgi odamlar Mars urushni boshqaradi deb o'ylashar edilar. Notum est, Alexandrum Magnum

Maracandam delevisse. Ma'lumki, Buyuk Aleksandr Maroqandani buzib tashlagan edi. Buyuk Aleksandr Maroqandani buzib tashlaganligi ma'lum.

Xulosa qilib aytganda, lotin tilidagi bu kabi gap qurilmalari tarkibida infinitivli oboroti bo'lgan sodda gap bo'lib, o'zbek tiliga tarkibida sifatdoshli oboroti bo'lgan sodda gapdek yoki to'ldiruvchi ergash gap kabi tarjima qilinadi.

NOMINATIVUS CUM INFINITIVO

De nihilo nihil.

Yo'qdan bor bo'lmaydi.

Lotin tilida ba'zan tarkibida Accusativus cum infinitivo oboroti bo'lgan sodda gaplarning asosiy kesimi dico g a p i r moq , trado - x a b a r b e r m o q kabi ma'nolarni ifodalab, uchinchi shaxsda kelgan gaplarning mazmunini ikki xil tushunish mumkin. Masalan: Dicunt Homerum caecum esse.

1) (Ular) Gomerni ko'r bo'lgan deb aytdilar.

2) Aytishlaricha, Gomer ko'r bo'lgan ekan.

Ma'lumki, lotin tilida gapning egasi kishilik olmoshlari bilan ifodalangan bo'lsa, ega vazifasini bajaruvchi kishilik olmoshi qo'llanilmaydi. Shuning uchun ham yuqoridagi gapda fe'l bilan ifodalangan kesim uchinchi shaxsda bo'lganligi sababli **u l a r a y t i s h d i l a r** deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zan lotin tilida ham o'zbek tilidagi kabi gapning asosiy kesimi a y t i s h l a r i c h a , x a b a r b e r i s h l a r i c h a kabi ma'noni anglatuvchi fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa, egasi noma'lum bo'ladi. Shu kabi egasi noma'lum bo'lgan sodda gapning tarkibida kelgan Accusativus cum infinitivo oboroti o'rniga Nominativus cum infinitivo oboroti qo'llaniladi. Bu ot yoki olmoshning bosh kelishikda va fe'llarning infinitiv shakllaridan iborat bo'lgan sintaktik oborotdir. Agar tarkibida Accusativus cum infinitivo oboroti bo'lgan sodda gapning asosiy kesimi aniqlik nisbatida kelsa, Nominativus cum infinitivo da sodda gapning asosiy kesimi majhullik nisbatida keladi. Masalan: Calpurnia uxor Caesaris somnium malum habuisse dicitur A y t i s h l a r i c h a , S e z a r n i n g x o t i n i K a l p u r n i y a y o m o n t u s h k o' r g a n emish.

Bu gapdagi asosiy kesim **dicitur** ning egasi noma'lum bo'lganligi sababli gap tarkibidagi oborot Calpurnia malum somnium habuisse asosiy kesimga nisbatan murakkab ega vazifasini bajaryapti. Shunday qilib, lotin tilidagi bu turkum gaplar oborotli sodda gap deb ataladi, o'zbek tiliga esa ega ergash gapli qo'shma gap kabi tarjima qilinadi.

SUPINUM - SUPIN

Dixi et animam levavi.

Aytib ko'nglimni bo'shatdim.

Supin otlashgan fe'l bo'lib, faqat Accusativus va Ablativus kelishiklarida qo'llaniladi. Accusativus kelishigida supin **-um** qo'shimchasini olib, ish-harakatning maqsadini ifodalaydi (fe'llarning shaxssiz shakllariga qarang). O'zbek tiliga **u ch u n** yuklamasi bilan yoki jo'nalish kelishigida tarjima qilinadi. Masalan: Venio lectum. - O'q i sh u c h u n k e l d i m yoki O'q i s h g a k e l d i m.

Ablativus kelishigida supin **-u** qo'shimchasini olib, jucundus, facilis, difficilis kabi sifatlar bilan keladi va shu sifatlarga aniqlovchi bo'ladi. Umuman supin ablativus kelishigida kelib, sifat aniqlab kelayotgan predmetning qaysi ma'noda yaxshi yoki yomonligini aniqlaydi. Masalan: liber facilis lectu - o'q i l i s h i yengil bo'lgan k i t o b.

GERUNDIUM - GERUNDIY

Quod erat demonstrandum (Q.E.D.).

Isbotlanishi lozim bo'lgan narsa.

Gerundiy - otlashgan fe'l bo'lib, kelishiklarda bosh kelishikdan tashqari, qolgan kelishiklarning birligida turlanadi (fe'llarning shaxssiz shakllariga qarang). Shu bilan bir qatorda, ular fe'llik hukmronligini ham yo'qotmaydi. Gerundiy ma'nosiga ko'ra o'zbek tilidagi **-sh, -ish** qo'shimchalari bilan yasalgan harakat nomlariga to'g'ri keladi. Gerundiy gapda kelishik qo'shimchalarini olib, quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1) gerundiy Genetivus kelishigida kelib, otga nisbatan aniqlovchi bo‘ladi. Masalan: ars curandi -d a v o l a sh s a n a ‘ t i, modus vivendi – y a sh a sh t a r z i.

2) Dativus kelishigida juda kam qo‘llanilib, ish-harakatning maqsadini ifodalaydi. Masalan: locum pugnando - j a n g q i l i sh j o y i.

3) Accusativus kelishigida gerundiy **ad** predlogi bilan kelib, ish-harakatning jo‘nalish maqsadini aniqlaydi. Masalan: homo ad vivendum, et laborandum natus est. - I n s o n y a sh a sh v a m e h n a t q i l i sh u c h u n t u g ‘ i l a d i. Nulla aetas ad discendum sera. - O ‘ q i sh y o sh t a n l a m a y d i.

4) Ablativus kelishigida gerundiy **ex, de, in** predloglari bilan yoki predlogsiz keng qo‘llanilib, ish-harakatning davomiyligini ifodalaydi. Masalan: Docendo discimus. - O ‘ r g a t i b o ‘ r g a n a - m i z. Ex discendo capimus voluptatem. - O ‘ q i sh d a n l a z z a t o l a m i z.

GERUNDIVUM - GERUNDIV

Modus vivendi.

Hayot tarzi.

Gerundiv - sifatlashgan fe‘l bo‘lib, sifatlarning I va II turlanishi kabi kelishiklarda turlanadi (fe‘llarning shaxssiz shakllariga qarang). Gapda kelishik qo‘shimchalarini olib otga nisbatan aniqlovchi yoki fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshlari kabi ish-harakatning davomiylik jarayonini ifodalaydi. Agar fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshlari ish-harakatning tugallanganligini ifodalasa, gerundiv davom etayotgan yoki kelgusida bo‘ladigan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: domus ornandi -b e z a l a y o t g a n u y. In liberanda patria mori - Vatanni himoya qilayotib, halok bo‘lmoq.

Lotin tilidagi gerundiv o‘zbek tiliga fe‘llarning hozirgi zamon sifatdoshi kabi yoki ravishdoshdek tarjima qilinadi.

Shunday qilib, gerundiy va gerundivlarning yasalish uslubi bir xil bo‘lib, bir xil kelishik qo‘shimchalariga ega. Ularning bir- biridan farqi gapda bajarayotgan sintaktik vazifasidir.

Gerundiv gapda gapning kesimiga nisbatan vositali to'ldiruvchi yoki otga nisbatan moslashmagan aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan: Gutta cavat lapidum non vi, sed saepe cadendo. - T o m - c h i t o s h n i k u c h i b i l a n e m a s , b a l k i t e z t o m i - s h i d a n t e s h a d i . A r s d i c e n d i . - G a p i r i s h s a n ' a t i .

2. Gerundiv **esse** yordamchi fe'li bilan kelib, gapning asosiy kesimi bo'ladi. Masalan: De gustibus non est disputandum. - D i d h a q i d a b a h s l a s h i b b o ' l m a y d i .

3. Gapda otga nisbatan moslashgan aniqlovchi bo'ladi. Masalan: Infandus dolor - C h i d a b b o ' l m a y d i g a n o g ' r i q .

PARTICIPIA - SIFATDOSHLAR

Anni currentis (a.c.).

Joriy yilda.

Sifatdoshlar fe'l va sifatlik belgilarini o'zida mujassamlashtirgan fe'l shakllaridir. Sifatdoshlarning zamon va nisbatga egaligi, fe'llik hukmronligini o'zida saqlab qolishligi va ravish bilan aniqlanishi fe'lga tobe bo'lsa, kelishiklarda sifat kabi turlanishi, rod grammatik kategoriyasiga ega bo'lishi sifatga tobedir.

Lotin tilida sifatdoshlar mutloq zamonga ega emas balki gapning asosiy kesimi ifodalagan zamonga nisbatan olinadi. Ya'ni gapning asosiy kesimi qaysi zamonda bo'lsa, shu zamon bilan moslashadi. Masalan: Video Dildoram epistulam scribentem. - X a t y o z a y o t g a n D i l d o r a n i k o ' r y a p m a n . V i d i D i l d o r a m e p i s t u l a m s c r i b e n t e m . - X a t y o z a y o t g a n (y o z g a n) D i l d o r a n i k o ' r d i m .

Lotin tilida sifatdoshlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) participium attributivum sodda gap tarkibida kelib, to'ldiruvchiga nisbatan aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan: Video Dildoram scribentem. Bu misolda sifatdosh scribentem vositasiz to'ldiruvchi Dildoramga nisbatan aniqlovchi bo'lib kelgan. Ya'ni y o z a y o t g a n D i l d o r a n i k o ' r a y a p m a n .

b) participium praedicativum (conjunctum) sodda gap tarkibida kelib, asosiy kesimni qanday, qachon va qay holatda bajarilishini ifodalaydi. Masalan: Alexander, cum librum legens, redibat. - A l e

ksandr kitobni o'qiyotib kuldi. Timeo Danaos et dona ferentes. - Hatto sovg'a bilan kelsa ham, greklar dan qo'rqaman. Reddo Dildoram epistulam legentem. Dildora xatni o'qiguncha, qaytib keldim. Dildora eam epistulam legens, non intellegit. -

Dildora xatni o'qisa ham, tushunmadi.

Shunday qilib, sifatdoshlarning gapdagi sintaktik vazifasi gapning matniga qarab aniqlanadi. Masalan: Milites, tumultu perterentes, e proelio fugerunt. Shovqindan qo'rqan qo'shinlar jang maydonini tashlab ketdilar yoki Qo'shinlar shovqindan qo'rqib, jang maydonini tashlab ketishdilar.

MUSTAQIL ABLATIVUS KELISHIGI

ABLATIVUS ABSOLUTUS

Larga manu.
Ochiq qo'llik.

Lotin tilida sifatdosh bilan bog'lik bo'lgan Ablativus absolutus oboroti ham juda keng qo'llaniladi.

Ot yoki olmosh hamda sifatdoshlardan iborat so'z birikmalari Ablativus kelishigida kelib, payt, sabab, shart va tarz hollarini ifodalovchi ibora bo'lib, gapning biron bir bo'lagiga tobe bo'lmaganligi uchun mustaqil Ablativus kelishigi deb ataladi. Ablativus kelishigida kelgan ot yoki olmosh mantiqiy ega, shu kelishikda kelgan sifatdosh esa mantiqiy kesim vazifasini bajaradi. Masalan: Autumno adviente aves avolant. Kuz kelishi bilan qushlar uchib ketadi.

Bu gapdagi autumno Ablativus kelishigida kelib, mantiqiy ega, sifatdosh adviente esa shu kelishikda kelib, mantiqiy kesim vazifasini bajaradi.

Bu gap qurilmasi ma'no jihatidan payt ergash gapga to'g'ri keladi. Masalan; Cum autumnus advenit, aves avolant. Kuz kelgach, qushlar uchib ketadi. Ablativus absolutus gapning ajratilgan bo'lagi bo'lsa ham ma'no jihatidan gap bilan to'la

bog‘langandir. Chunki asosiy kesim ifodalayotgan ish-harakat qachon, qanday va nima sababdan sodir bo‘lish holatini bildirib keladi.

Ablativus absolutus oboroti tarkibida kelgan hozirgi zamon aniqlik nisbatidagi sifatdosh (participium praesentis activi) asosiy kesim ifodalayotgan ish-harakat bilan bir paytda sodir bo‘lish holatini bildiradi. Masalan: Magistro interante in auditorium discipuli surgunt. O‘qituvchi sinfga kirishi bilan, o‘quvchilar o‘rnidan turishdilar.

Shu oborot tarkibida kelgan o‘tgan zamon majhullik nisbatidagi sifatdosh (participium perfecti passivi) esa asosiy kesim ifodalayotgan ish harakatga nisbatan oldin sodir bo‘lgan voqea hodisani ifodalaydi. Masalan: Bello confecto legati ad Caesarem venerunt. Urush tugagan dan keyin, Sezarga elchilar kelishdilar.

Demak, yuqorida ko‘rib o‘tilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, lotin tilidagi bu ibora o‘zbek tiliga payt va sabab ergash gaplaridek tarjima qilinadi.

KON’YUNKTIVNING MUSTAQIL GAPDA QO‘LLANISHI

Vivat, floreat!
Yashasin, gullasin!

Conjunctivus (shart mayli) ish-harakat va voqea-hodisaning yuzaga kelishi yoki shu ish-harakatning yuzaga kelishiga xohish, istak kabi holatlarni ifodalaydi. Lotin tilida kon’yunktiv o‘zbek tilidagi istak va shart mayllarini o‘zida mujassamlashtirgandir.

Lotin tilida kon’yunktiv mustaqil gaplarda quyidagi holatlarni ifodalaydi.

a) conjunctivus hortativus - gapda hozirgi zamon birinchi shaxs ko‘plikda qo‘llanilib, da’vatni ifodalaydi. Masalan: legamus! - O‘qiylik yoki kelinglar o‘qiylik. Gaudeamus! - Kelinglar xursandchilik qilaylik.

b) conjunctivus imperativus - hozirgi zamon ikkinchi va uchinchi shaxslarda qo‘llanilib, buyruq va talabni ifodalaydi.

Masalan: dicas! - G a p i r s a n g e d i! Dicatis! - G a p i r s a n g i z e d i! Legat! - O' q i s a n g e d i!

c) conjunctivus optativus - gapda uchinchi shaxs birlik va ko'plikda qo'llanilib, xohish va chaqiriqni ifodalaydi. Masalan: Vivat! - Ya s h a s i n! Pereat! - Y o' q o l s i n!

KON'YUNKTIV ZAMONLARINING ERGASH GAPDA QO'LLANISHI

Ante victoriam ne canas triumphum.

To'ndan oldin nog'ora chalma.

Kon'yunktiv zamonlarining ergash gapda qo'llanishi Yevropa tillariga xos bo'lgan umumiy "consecuto temporum" (zamonlarning moslashuvi) qonuniyatiga rioya qiladi. Shu qonuniyatga asosan bosh gapning kesimi qaysi zamonda kelsa, ergash gapning kesimi ham shu zamon bilan moslashadi. Agar bosh gapning zamoni bilan tobe gapning zamoni ifodalayotgan ish-harakat yoki voqea-hodisa bir paytda sodir bo'lsa, bosh gapning kesimi asosiy zamonlardan birontasida, tobe gapning kesimi esa praesens conjunctivi (hozirgi zamon istak mayli) da keladi. Bosh gapning zamoniga nisbatan oldin bo'lgan bo'lsa, tobe gapning kesimi perfectum conjunctivi (o'tgan tugallangan zamon istak mayli) da keladi, agar ish-harakat bosh gapning zamoniga nisbatan keyinroq bo'lsa, tobe gapda participium futuri activi (kelasi zamon aniqlik nisbatidagi sifatdosh) hamda yordamchi fe'l *e s s e* praesens conjunctivi da keladi. Masalan: Interrogo, quid facias N i m a q i l a y a p s a n d e b s o' r y a p m a n. Interrogabo, quid faceris. N i m a q i l d i n g d e b s o' r y a p m a n. Interrogavero, quid facturus sis. N i m a q i l a s a n d e b s o' r y a p m a n.

Demak, misollar shuni ko'rsatadiki, lotin tilida bosh gapning kesimi bilan tobe gapning kesimi o'rtasidagi grammatik aloqa boshqa tillarga nisbatan ancha kuchli.

MAQSAD ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP

Do, ut des.

Bor tovog‘im, kel tovog‘im ...

Lotin tilida ham xuddi o‘zbek tilidagi kabi maqsad ergash gap bosh gapdagi harakat yoki voqeaning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Lotin tilida maqsad ergash gap bosh gap bilan **ut** va **ne** bog‘lovchilari orqali birikadi. Maqsad ergash gapning kesimi ifodalayotgan holat aniq bo‘lmaganligi sababli kon’yunktiv zamonlaridan birida keladi.

Agar bosh gapning kesimi asosiy zamonlarning birontasida kelsa, maqsad ergash gapning kesimi praesens conjunctivida keladi. Masalan: Edimus, ut vivamus, non vivimus ut edamus. - Ya- sh a sh u ch u n o v q a t l a n a m i z, yeyish - ichish uchun yashamaymiz. Agar bosh gapning kesimi tarixiy zamonlarning birontasida kelsa, maqsad ergash gapning kesimi imperfectum conjunctivida keladi. Masalan: Hannibal venenum sumpsit, ne vivus in Romanorum potestatem. **Gannibal Rimliklar qo‘liga tirik tu sh maslik uchun zahar ichdi.**

Shunday qilib, lotin tilida maqsad ergash gaplardagi orzu qilingan, o‘ylangan maqsadni ifodalash uchun ergash gap oldidan **ut** va **ne** bog‘lovchilari qo‘llanilib, kesimi shart mayli zamonlaridan birida kelsa, o‘zbek tilida **u ch u n, d e b** kabi yordamchi so‘zlar bilan birikadi. Masalan. Ante senectutem curavi, ut bene viverem; in senectute, ut bene moria. - **Qariganda yaxshi yashab, yaxshi o‘lish uchun qariguncha meh-nat qildim.**

TO‘LDIRUVCHI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP

Facio ut fecias.

Qilmish - qidirmish.

Lotin tilida ham xuddi o‘zbek va boshqa tillardagi kabi to‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi fikrni to‘ldirib, uning fe‘l kesimiga nisbatan to‘ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Lotin tilida bosh gapning kesimi ifodalayotgan ma’noga ko‘ra to‘ldiruvchi ergash gap bir necha turga bo‘linadi:

a) agar bosh gapning kesimi harakat yoki xohishni ifodalasa, to'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan **ut** va **ne** bog'lovchilari orqali birikadi. Masalan. Cives optaverunt ut Caesar in Romam veniret. - Fuqaro Sezarning Rimga kelishini xohladi.

b) agar bosh gapning kesimi **timere, metuere** - qo'rqmoq fe'llari bilan kelgan bo'lsa, to'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan **ne** bog'lovchisi orqali birikadi. Masalan: Timeo, ne Dildora in domum eat. - Dildora uyiga ketib qolmasa deb qo'rqmagan.

d) bosh gapning kesimi **impedere, obstare** - halaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq kabi fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa, to'ldiruvchi ergash gap bosh gap bilan **ne, quominus, quin** kabi bog'lovchilar bilan bog'lanadi. Masalan. Neque te impedio, quominus susceptum negotium gerere possis. - Boshlagani shingni davom ettirishiga men ham halaqit bermayman.

NATIJA ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Ut sementem feceris, ita metas.

Nima eksang shuni o'rasan.

Natija ergash gap bosh gapdagi harakatning natijasini yoki voqeaning xulosasini ko'rsatadi.

Lotin tilida natija ergash gap bosh gap bilan **ut** va **ut non** bog'lovchilari yordamida birikadi. **Ut** bog'lovchisi bilan kelgan natija ergash gap ut consecutivum deb atalib, bosh gap bilan *is, talis, tantus* kabi ko'rsatish olmoshlari yoki *sic, ita, adeo* kabi ko'rsatish ravishlari bilan o'zaro bog'lanadi va bosh gapning kesimi ifodalayotgan harakat va voqeani tasdiqlaydi.

Natija ergash gapning kesimi hamisha coniunctivus zamonlaridan birida kelib, asl ma'nosida emas, balki aniq natijani ifodalaydi. Masalan. Ita vivere oportet, ut homines tibi credant. Shunday yashash kerakki, odamlar senga ishonсин. Aqua fluminis Nili adeo est limosa, ut multos morbos efficiat. Nilning suvi shunchalik ifloski, natijada har xil kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Epaminondas adeo fuit veritatis diligens, ut ne joco quidem

mentiretur. Epaminond rostgo'ylikni shunchalik ham yaxshiko'rar ediki, hatto hazillashib ham yolg'on gapirmas edi.

Demak, lotin tilida tarkibida ko'rsatish olmoshlari bo'lgan natija ergash gapning bog'lovchisi **ut** o'zbek tiliga **-ki** bog'lovchisi orqali tarjima qilinadi.

PAYT ERGASH GAPLI QO'SHMA GAP

Suum cuius rei tempus est.
Har narsaning o'z vaqti bor.

Payt ergash gaplar bosh gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelish paytini bildiradi.

Lotin tilida payt ergash gaplar bilan *cum, postquam, ut, ubi, simul, dum, donec* kabi bog'lovchilar yordamida birikadi. Bulardan eng ko'p qo'llaniladigani *cum* bog'lovchisidir. Bu bog'lovchi bilan kelgan payt ergash gapning kesimi indikativ zamonlarida ham, kon'yunktiv zamonlarida ham kelishi mumkin. *Cum* bog'lovchisi bilan kelgan payt ergash gaplarning ba'zilariga to'xtalamiz.

Cum temporale - bosh gapning hamda ergash gaplarning kesimlari ifodalayotgan harakat, voqealar bir paytda hozirgi zamon yoki kelasi zamonda keladi. Masalan. *Cum est otium, in domum tuum eo. V a q t i m b o' l s a u y i n g g a b o r a m a n.*

Lotin tilida payt ergash gap bosh gap bilan *cum* bog'lovchisi orqali bog'langan bo'lsa, o'zbek tiliga tarjima qilinganda payt ergash gap bosh gap bilan **-sa** bog'lovchisi orqali birikadi.

Cum iterativum - bu bog'lovchi bilan kelgan payt ergash gapning kesimi ifodalayotgan harakat yoki voqea hozirgi zamonda yoki kelgusida takrorlanib turishini ifodalaydi. Masalan. *Cum Marakandam veni eo ad te. H a r s a f a r S a m a r q a n d g a k e l s a m s e n i k i g a b o r a m a n y o k i S a m a r q a n d g a k e l d i m d e g u n c h a, s e n i k i g a b o r a m a n.*

Cum iterativum bog'lovchisi bilan kelgan payt ergash gap o'zbek tiliga tarjima qilinganda, payt ergash gapning kesimi shart maylida kelib bosh gap bilan birikadi yoki **demoq** fe'li **deguncha** shaklida kelib komponentlarni bir-biriga bog'laydi.

3) *Cum coincidens*- bu bog'lovchi bilan kelgan payt ergash gapning kesimi bosh gapning kesimi ifodalayotgan harakat yoki voqea zamonlariga mos kelib, shu harakat yoki voqeaning mazmunini izohlab keladi. Masalan. Cum magister alios docet, ipse discit. Q a c h o n k i o' q i t u v c h i b o s h q a l a r g a o' r g a t s a, o' z i h a m o' r g a n a d i.

4) *Cum historicum* - bu bog'lovchi bilan kelgan payt ergash gap tarixi voqea-hodisani hikoya qilishda ko'p qo'llaniladi. Bu bog'lovchi bilan kelgan payt ergash gapli qo'shma gaplarda, komponentlarning fe'l-kesimlari ifodalayotgan harakatlar o'rtasidagi ichki aloqa juda kuchli bo'lib, payt ergash gapning kesimi ifodalayotgan harakatisiz bosh gapning kesimi ifodalayotgan harakat yuzaga kelmaydi. Shuning uchun ham payt ergash gapning kesimi hamisha kon'yunktiv zamonlaridan birida keladi. Masalan: Cum hostes urbem cepisset, incolae arma abjecerunt et fugerunt.

D u s h m a n l a r s h a h a r n i b o s i b o l i s h a y o t g a n d a, s h a h a r a h o l i s i q u r o l l a r i n i t a s h l a b q o c h i s h d i - l a r. Cum Caesar in Asiam iter facerat, navis ejus praedonibus capta est. S e z a r O s i y o g a y u r i s h q i l a y o t g a n p a y t i - d a, u n i n g k e m a l a r i q a r o q c h i l a r t o m o n i d a n q o' l g a o l i n g a n e d i.

Payt ergash gap bosh gap bilan *ut, ubi, simul, postquam, dum* kabi bog'lovchilar bilan ham bog'lanib keladi. Masalan: Ut Afer populo sex dedit comoedias, iter in Africam fecit. A f r (P. Terentiy) x a l q q a o l t i t a k o m e d i y a k o' r s a t g a n d a n k e y i n A f r i k a g a j o' n a b k e t d i. *Dum spiro, spero.* H o - z i r c h a t i r i k e k a n m a n, u m i d q i l a m a n. Donec eris felix, multos numerabis amicos habebis. H o z i r c h a b a x t l i e k a n s a n, d o' s t l a r i n g k o' p d i r.

Demak, misollar shuni ko'rsatadiki, payt ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapdagi harakatning faqat paytini bildirib qolmay, shunga bog'liq holda shart va sabab kabi ma'no nozikliklarini ham ko'rsatadi.

SABAB ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP

Exempla docent.

Tajriba o‘rgatadi.

Sabab ergash gap bosh gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelish sababini, asosini bildiradi. Bunday qo‘shma gaplarda ergash gap sababni ko‘rsatsa, bosh gap shu sababdan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi.

Lotin tilida ham xuddi o‘zbek tilidagi kabi sabab ergash gaplar mazmunan ikkiga bo‘linadi: aniq sabab mazmunini bildiruvchi ergash gaplar va aniq bo‘lmagan, taxmin qilingan, gumon mazmunni ifodalovchi ergash gaplar.

Lotin tilida sabab ergash gapni bosh gap bilan *quod, qui, quoniam* kabi bog‘lovchilar biriktirib keladi. Shu bog‘lovchilar bilan kelgan ergash gapning kesimi aniqlik mayli zamonlaridan birida kelsa aniq sababni bildiradi. Masalan. Helvetii reliquos Gallos virtute praecedunt, quod fere cotidianis proelis cum Germanis contendunt. Gelvetlar Germanlar bilan har kuni jang qilib turganliklari uchun ham Galliyadagi qabilalardan kuchli edi.

Agar sabab ergash gapning kesimi shart mayli zamonlaridan birida kelsa, gumon sababni bildiradi. Masalan. Noctu ambulabat Themistocles, quod somnum capere non posset. Femistokl uxlay olmasligi sababli, kechasi sayr qilar ekan.

Qui, quod, quoniam bog‘lovchilaridan tashqari sabab ergash gapni bosh gap bilan *cum causale* bog‘lovchisi ham biriktirib keladi. *Cum causale* bog‘lovchisi bilan kelgan sabab ergash gapning kesimi hamisha kon’yunktiv zamonlaridan birida keladi. Masalan.

Aedui, cum se ab hostibus defendere non possint, legatos ad Caesarem mittunt. E duilar o‘zlarini dushmanlardan himoya qila olmaganliklari uchun Sezarga elchilar yuborishdilar. Cum timerem, deum praecatus sum. Qo‘rqqa nim uchun ham xudoga sig‘ina -man.

SHART ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAP

Ex facto oritur jus.

Dalolat - haqiqat.

Shart ergash gap bosh gapdagi voqeaning qanday shart bilan yuzaga kelganini yoki yuzaga kelishini bildiradi. Lotin tilida shart ergash gapli qo‘shma gap uch guruhga bo‘linib, shart ergash gap bosh gap bilan **si** bog‘lovchisi orqali birikadi.

Casus realis - aniq shartni bildiruvchi ergash gap bosh gapdagi harakatning ma‘lum shart bilan yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bosh va ergash gaplarning kesimlari indikativ zamonlaridan birida keladi. Masalan. Si quid in te peccavi, ignosce. Agar mensening oldingda gunoh qilgan bo‘lsam, kechir.

2) *Causa potentialis* - yashirin ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan shart ergash gap faqat kelasi zamonga xos bo‘lib, ko‘rsatilgan shartning bajarilishi mumkin bo‘lsa ham, yuzaga kelishi gumon bo‘ladi. Masalan: Quid si pater fana expilet, indicetne ad magistratibus filius? Agar otasi ibodatxonani o‘g‘irlasa, o‘g‘li shu haqida hokimiyatga xabar berar midir? Si ita putes, erres. Agar sen shunday o‘ylaganingda, sen xato qilgan bo‘lareding.

3) *Casus irrealis* - noaniq shart ergash gap bosh gapdagi harakat, voqeaning yuzaga kelishida taxmin qilingan shart mazmunini bildiradi. Bosh va ergash gaplarning kesimlari imperfectum conjunctiv da kelib, hozir bajarilishi mumkin bo‘lgan shartni ifodalaydi. Masalan: Nisi Alexander essem, Diogenes esse vellem. Agar Aleksandr bo‘lmaganimda Diogen bo‘lishni istar edim.

Bosh va ergash gaplarning kesimlari plusquamperfectum conjunctiv da kelib, ilgari amalga oshmagan shartni ifodalaydi. Masalan. Libenter bibissem, si invenissem, venenum. Agar za-ha rni topganimda, ikkilanmay ichgan bo‘lar edim. Si venisees ad exercitum, a tribunis militaribus visus esses. Agar sen qo‘shinga kelganingda, harbiy boshliqlar seni ko‘rgan bo‘lar edi.

O‘ZLASHTIRMA GAP

Una hirundo non facit ver.

Bitta qaldirg‘och kelgani bilan bahor bo‘lmaydi.

Ma‘zmuni, grammatik va leksik xususiyatlari o‘zgartirilmay, aynan berilgan o‘zgalarning gapi - ko‘chirma gap (*oratio recta*) deb ataladi. Masalan: Dildora Dilshodam inquit, "Ego florem tibi donabo." Dildora Dilshodaga dedi: "M e n s e n g a g u l h a - d y a q i l a m a n".

Agar o‘zgalari gapining grammatik va ayrim leksik xususiyatlari o‘zgartirilib berilsa, o‘zlashtirma gap (*oratio obliqua*) deb ataladi. Masalan. Dildora Dilshodam dicit, se florem eam donare. D i l d o r a D i l s h o d a g a g u l h a d y a q i l i s h i - n i a y t d i.

Lotin tilida har qanday ko‘chirma gapni hatto u butun bir tekst orqali ifodalangan bo‘lsa ham nutqdagi barcha elementlari saqlanib, quyidagi til qoidalariga rioya qilgan holda o‘zlashtirma gapga aylantirish mumkin. Faqatgina ko‘chirma gapdagi **m e n, s e n** kabi kishilik olmoshlari o‘rnini kishilik olmoshi **u** egallaydi.

1. Agar ko‘chirma gapning fe‘l kesimi aniqlik mayli zamonlarining biri orqali ifodalangan bo‘lsa, o‘zlashtirma gap Accusativus cum infinitivo oborotiga aylanib, avtor gapining kesimiga nisbatan murakkab to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Masalan: Ko‘chirma gap. Caesar: "Admissor, - inquit, ipse est Dumnorix summa audacia, magna apud plebum propter liberalitatem gratia, cupidus rerum novarum" Davlat to‘ntarilishining ashaddiy tarafdori, o‘zining ochiqligi bilan xalqning hurmatini qozongan, jasur Dumnorig bunga aybdor, - dedi Sezar.

Ushbu misol o‘zlashtirma gapga aylantirilsa, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Caesar dicit, admissorem ipsem esse Dumnorigem summa audacia, magna apud plebem propter liberalitatem gratia, cupidum rerum novarum. Sezar bunga, davlat to‘ntarilishining ashaddiy tarafdori, o‘zining ochiqligi bilan xalqning hurmatini qozongan jasur Dumnorigning aybdor ekanligini aytdi.

2. Agar ko‘chirma gap so‘roq gap bo‘lib, birinchi yoki uchinchi shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘zlashtirma gap Accusativus cum ifinitivo oborotida keladi. Ikkinchi shaxsga tegishli bo‘lsa,

konyunktiv zamonlaridan birida keladi. Masalan: ko‘chirma gap. Dux milites inquit: "Et ex proximus hibernis et a Caesare convenient subsidia: prostremo, quid est levius aut turpius, quam auctore hoste de summis rebus capere consilium?" - Harbiy boshliq qo‘shinlarga dedi: - Qo‘shni qishloqlardan va Sezardan yordam keladi, dushmanlarning gapiga kirib, muhim bo‘lmagan ish yuzasidan shoshilinch qaror qabul qilishdan farosatsizroq va sharmandaliroq narsa bormi?" O‘zlashtirma gap: Dux milites dicit, ex proximis hibernis et a Caesare conventura subsidia; postremo, quid esse levius aut turpius, quam auctore hoste de summus rebus capere consilium. Harbiy boshliq qo‘shinlariga qo‘shni qishloqdan va Sezardan yordam kelishini aytdi, dushmanlarning gapiga kirib, uncha muhim bo‘lmagan ish yuzasidan shoshilinch qaror qabul qilishdan farosatsizroq va sharmandaliroq narsaning bor-yo‘qligini so‘radi.

Misoldagi ko‘chirma gap so‘roq gap bo‘lib uning egasi uchinchi shaxsda kelganligi uchun o‘zlashtirma gap to‘lig‘icha Accusativus cum infinitivo oborotiga aylangan. O‘zbek tiliga qilingan tarjima shuni ko‘rsatadiki, avtor gapining kesimi qanday fe‘l bilan ifodalanganligidan qat’iy nazar o‘zlashtirma gap faqat **so‘ramoq** fe‘li orqali ifodalanadi. Bundan tashqari so‘roq gapning kesimi **-mi** yuklamasi bilan kelganligi uchun o‘zlashtirilganda, fe‘l kesim bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda keladi.

3. Agar ergashgan qo‘shma gap ko‘chirma gap bo‘lsa, o‘zlashtirilganda ergash gapning kesimi kon’yunktiv zamonlaridan birida keladi va bosh gap to‘lig‘icha Accusativus cum infinitivo oborotiga aylanadi. Masalan: ko‘chirma gap. Divico Caesarem inquit; " Si pacem populus Romanus nobiscum faciet, in eam partem ibimus atque ibi erimus, ubi nos tu constitueris atque esse volueris; sin bello persequi perseverabis, reminiscitor pristinae virtutis nostrae". Divikon Sezarga dedi: - "Agar Rim xalqi biz (gelvetlar) bilan tinchlik haqida shartnoma tuzsa, sen bizni qayerga yuborsang, shu yerga boramiz va o‘sha yerda qolamiz, agar urushni davom ettirmoqchi bo‘lsang bizlarning qadimdan jasur ekanligimizni unutma".

O‘zlashtirma gap: Divico Caesarem dicit, si pacem populus Romanus cum Helvetiis faceret, in eam partem ituros atque ibi futuros Helvetios, ubi eos Caesar constituisset atque esse voluisset;

sin bello persequi perseveraret, reminisceretur pristinae virtutis Helvitorum. Rim xalqi Gelvetlar bilan tinchlik haqida shartnoma tuzsa, Sezar Gelvetlarni qayerga yuborsa, ular o'sha yerda qolishligini, agar urushni davom ettirmoqchi bo'lsa, Gelvetlarning qadimda jasur ekanligini eslashni Divikon Sezarga aytdi.

O'zbek tilida ergashgan qo'shma gap ko'chirma gap shaklida berilsa ergash gap o'zgarmay bosh gap o'zlashtirma gap shaklini oladi. Shunga qaramasdan qo'shma gapning mazmuni o'zlashtirilib beriladi. Misol uchun, "Hamma ko'saklar pishib bersa, ishimiz yaxshi bo'ladi" - dedi u. O'zlashtirma gap: U, hamma ko'saklar pishib bersa, ishi yaxshi bo'lishligini aytdi.

QADIMGI RIM KALENDARI

YIL, OY, KUN

Ad Kalendas Graecas.

Hech qachon.

Qadimgi Rimda bir yil o'n oydan iborat bo'lib, yilning boshi mart oyidan boshlangan. Bular quyidagilar:

<i>mensis Martius</i>	Urush xudosi Mars nomi bilan atalgan.
<i>Aprilis</i>	Xudo Afrodito nomi bilan atalgan.
<i>Majus</i>	Bahor xudosi Mayya nomi bilan atalgan.
<i>Junius</i>	Nikoh xudosi Yunona sharafiga bag'ishlangan.
<i>Quintillis</i>	Qolgan oylarning nomlari lotin tilidagi
<i>Sextilis</i>	tartib sonlardan olingan bo'lib, beshinchi
<i>September</i>	oy, oltinchi oy, yettinchi oy, sakkizinchi oy,
<i>October</i>	to'qqizinchi oy va o'ninchi oy deb atalgan.

November

December

O'n oydan iborat bo'lgan qadimgi Rim kalendarida ko'p chalkashliklar bo'lganligi sababli Rimning ikkinchi podshosi Num Pompiliy (milodan avval 715-672- yillar) kalendarni qayta ko'rib chiqdi va qadimgi Rimda o'n ikki oylik kalendarni joriy qildi. Yuqorida nomlari keltirilgan oylarga o'n birinchi oy Januarius (quruvchilar va kirim-chiqim xudosi Yanus nomiga bag'ishlangan)

va oʻn ikkinchi oy Februarius (qadimgi Etrus tilidagi febuare feʼlidan olingan boʻlib, gunohlarini yuvish va xudolar nomiga qon chiqarib, sadaqa qilish degan maʼnoda) oylarni qoʻshdi.

